**O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**Kasb ta'limi fakulteti 5140901-Kasb ta'limi (iqtisodiyot) bakalavr ta'lim yo'nalishi talabasi Payziyev Muzaffarning**

# *BITIRUV MALAKAVIY ISHI*

**Mavzu: «Qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish yo'llari» mavzusini masofadan o'qitish texnologiyasi asosida ishlab chiqish**

**Rahbar:** A.B.Qurbonov

**Maslahatchi:** D.Q.Abdiyeva

**Ish bajaruvchi:** M.Payziyev

| | |
|---|---|
| **«Himoyaga ruxsat etildi»** | **«Himoya uchun DAK ga yuborildi»** |
| **«KT va P» kafedrasi** | **«Kasb ta'limi» fakulteti** |
| **mudiri ___________** | **dekani ___________** |
| **dots. Z.L.Botirov** | **dots. Q.S.Jumanazarov** |
| **«21» 06 2014 y.** | **«21» 06 2014 y.** |

**QARSHI-2014 y.**

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

Касб таълим fakulteti

Касб таълим (технологик таълим) ta'lim yo'nalishi

«TASDIQLAYMAN»

КТ ва ПЧ kaf.mudiri

[signature] З.Л. Бобоев
(imzo, f.i.sh)

«10» декабр 2013 y

**Bitiruv malakaviy ishi uchun**

**T O P SH I R I Q**

Talaba Тўраев Музаффар ga

1. Malakaviy ish mavzusi Касб ҳунар [illegible] тайёрлашда меҳнат таълими [illegible] ва янгиликлар [illegible] ҳисобланади.

institutning № 587/Т buyrug'i bilan 6.12.2013 da tasdiqlangan.

2. Malakaviy ishni topshirish muddati 20.06.2014

3. Malakaviy ish uchun ma'lumot Илмий методик манбалар [illegible], [illegible]

4. Hisobiy izoh qismining mazmuni (ishlab chiqilishi lozim bo'lgan savollar ro'yxati) Малакавий иш Кириш, 2 та боб, хулоса ва таклифлар, фойдаланилган адабиётлар рўйхатидан иборат

5. Chizmalar ro'yxati (bajarilishi shart bo'lgan chizma va grafiklar) Битирув малакавий иши [illegible] 8 та [illegible] тақдим этилган

6. Malakaviy ish bo'yicha maslahatchilar

[signature] Д. Абдиева

7. Malakaviy ishini bajarilishi bo'yicha kalendar grafik

| Haftalar soni | Malakaviy ish bo'limlari | Malakaviy ishning hajmi beti | Umumiy hajmga nisbatan % | Bajarilganligi to'g'risidagi belgi | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|
| I | Кириш | 6 | 6 | Бажарди | аъло |
| II | Фан ва мавзу тавсифи | 4 | 4 | Бажарди | |
| III | Ўқувчи [illegible] касб унинг масалалари | 36 | 36 | Бажарди | аъло |
| IV | Ўқитувчи [illegible] масалалар [illegible] | 30 | 30 | Бажарди | аъло |
| V | Назорат [illegible] [illegible] | 12 | 12 | Бажарди | аъло |
| VI | Амалий [illegible] [illegible] | 6 | 6 | Бажарди | аъло |
| | Хулоса ва Т[illegible] | 3 | 3 | Бажарди | аъло |
| VII | Фойдаланилган адабиётлар рўй[хати] | 3 | 3 | Бажарди | аъло |
| | | 100 | 100 % | | |

Malakaviy ish rahbari ____ А.Б.Курбонов.

Topshiriq olingan kun ____ 9.12.2013

Talaba ____ [illegible]

# Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasida asosiy vositalar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning rivojlanishiga e'tibor juda katta. Respublika agrosanoat majmuasi tarmoqlari ayniqsa, qishloq xo'jaligi yangi texnikalar, ish qurollari, texnologiyalarsiz rivojlana olmaydi. Ushbu tamoqlarning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizasiyalashtirish, ximiyalashtirish va avtomatlashtirishdir. Agrosanoat majmuasining birinchi (agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi) sohasining rivojlanishiga e'tiborning yanada kuchayishi talab qilinadi. Prezidentimiz bu borada «Hukumat, joylardagi davlat hokimiyati organlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini ularga kredit ajratishni sezilarli darajada kengaytirish, ularning faoliyatiga davlat organlari tomonidan noqonuniy aralashuv va turli to'siqlar qo'yish holatlariga yo'l qo'yilmaslik hisobidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirishi shart”-deya ta'kidlaydi.

Agrosanoat majmuasini rivojlantirish axolining turmush darajasini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Shu sababli mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanishga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan doimiy e'tibor berilib kelinmoqda. Buning natijasi o'laroq, mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotini yuritish uchun zarur huquqiy baza yaratildi va ular muttasil takomillashtirilmoqda. Olib borilgan siyosat natijasida agrar sohada nodavlat sektor tez rivojlantirildi. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 99,1 foizi nodavlat sektorda ishlab chiqarilmoqda. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish asosan shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari shaklida tashkil etildi bozor talablari va davlat ehtiyojlaridan kelib chiqib, ishlab chiqirishning tarkibi o'zgartirildi. Paxta yakkahokimligi barham berilda, g'allachilik tarmog'i keskin kengaytirildi. Natijada g'allachilik bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan maxsus tizim vujudga keldi. G'alla urug'chiligi keng yo'lga qo'yildi, g'allachilikning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan zarur moddiy – texnika bazasi yaratildi. Chorvachilik tarmog'i deyarli xususiylashtirildi.

Prezidentimiz bu borada «Hukumat, joylardagi davlat hokimiyati organlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini ularga kredit ajratishni sezilarli darajada kengaytirish, ularning faoliyatiga davlat organlari tomonidan noqonuniy aralashuv va turli to'siqlar qo'yish holatlariga yo'l qo'yilmaslik hisobidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirishi shart”-deya ta'kidlaydi

Birinchi soha tarmoqlarining rivojlantirilishi agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi tarmoqlarning fond bilan ta'minlanishi va kurollanishini yaxshilashga, pirovardda ishlab chiqarish, ayriboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlari o'zgarib, oxir–oqibatda aholining turmush sharoitlari yuksalishiga olib keladi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi “Qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish yo'llari” mavzusini nazariy va amaliy dars ishlanmasini ishlab chiqish bunda zamonaviy metodlaridan foydalanilgan holda ya'ni ma'ruza, Slaydli taqdimot qilish usuli, aqliy hujum, kichik guruxlarda ishlash usuli, namoyish etish usularidan foydalanib nazariy va amaliy dars o'tish ishlanmalarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi “Qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish yo'llari” mavzusi asos qilib olinib, ishda fan va mavzuning tavsifi, o'qitish metodikasining umumiy masalalari, ijtimoiy iqtisodiy masalalar majmuasi, mavzu bo'yicha nazariy va amaliy dars ishlanmalarini ishlab chiqish, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo'lib, 100 betni tashkil etadi.

## Fan va mavzuning tavsifi

## 1.1. Kasb-hunar kollejlarida mutaxassislar tayyorlashda "Kichik biznesni boshqarish" fanining tutgan o'rni va maqsadi.

"Kichik biznesni boshqarish" fani tadbirkorlie va biznes tushunchalari, ularning iqtisodiy rivojlantirishdagi o'rni respublikada tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari kichik biznes va tadbirkorlikning xuquqiy asolsari va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlsh masalalarini talabalarga o'rgatish maqsadida qo'yilgan. Shunnigdek mazkur fanda kichik biznes faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish, uning moliyaviy holati va kredit bilan ta'minlash shakllari kichik biznesning bank, soliq va audit tizimi bilan bo'ladigan aloqalari, axborot bilan ta'minlash yo'llari, boshqarish psixologiyasi va iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullari haqida o'rganiladigan iqtisodiy fandir.

Hozirgi kunda respublikada kichik biznes sohasi bilan shug'ullanuvchi ishbilarmonlarga talab yanada oshmoqda. Bu respublikadagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining oldiga bir qator vazifalar qo'yadi. Ulardan biri kichik biznes uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash, xodimlar malakasini oshirish, ularni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy bilimlar bilan qurollangan etuk kadr qilib tayyorlashdan iboratdir.

## 1.2.Kichik biznesni boshqarish fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi, vazifasi.

Kichik biznesni boshqarish fani yangi kirib kelayotgan iqtisodiy fan sifatida boshqa fanlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. U o'ziga yaqin fan yutuqlari ma'lumotlardan keng foydalanadi.

"kichik biznesni boshqarish" fani muayyan iqtisodiy fanlar bilan: korxonalarda ishlab chiqarishni rejalashtirish va uyushtirish, menejment, buxgalteriya hisobi, moliya va kredit, statistika kabi ko'plab fanlar bilan chambarchas bog'liq.

Ushbu fanning vazifasi – iqtisodiy bilimlarning amaldagi yutuqlaridan biznes, tadbirkorlik faoliyatida maqsadga muvofiq foydalanish, uning natijasida kichik korxonalarning samaradorligini oshirish, jahon bozoriga raqobatbardosh yuqori sifatli mahsulot turlarini ishlab chiqarishni ta'minlash va xalq farovonligini oshirishdir.

Mazkur fanning o'rganish ob'ektini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar korxonada muassasalar va tashkilotlar tashkil qilishi fannning iqtisodiyotdagi ahamiyatidan darak beradiganlar tashkil qiladi.

Fannni o'rganishda bozor iqtisodi bo'yicha malakali mutaxassislar, biznesmenlar, tadbirkor va ishbilarmonlarni tashkil etish talabalarni yanada chuqurroq bilim olishlariga, dunyoqarashlarini kengaytirishga imkon beradi.

## 1.3.Kasb hunar kollejlarining maqsad va vazifalari

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ta'limni isloh qilish, yosh avlodni intelektual va jismoniy rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Respublikamizda “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi, o'ziga xos milliy ta'lim modeli yaratildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, istiqlol kashf etgan yangi ta'lim turi-o'rta maxsus, kasb-hunar sohasida olamshumul ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, sohalar uchun tayyorlanadigan malakali mutaxassis-kadrlar jamiyatimiz taraqqiyoti va yuksalishida muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimi iqtidorli yoshlarning ko'payishiga zamin yaratdi. Ular o'zlarining qiziqish va qobiliyatiga qarab, akademik lisey va kollejlarda ta'lim olishmoqda. Yoshlarimizning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, o'zini o'zi rivojlantirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ammo hali bu boradi amalga oshiriladigan ishlar va ijodiy hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ko'lami juda katta. Hozirga vaqtda o'rta maktab bitiruvchilari kasb-hunar kollejlariga  yo'llanma orqali to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinadi. Holbuki dastlab ularning bilimi, iqtidori va fanga bo'lgan qiziqishini sinov orqali aniqlab, keyin ularni tegishli ta'lim muassasalariga qabul qilish kerak.

Hususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'anivich Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisdagi ma'ruzasida ta'lim sohasiga alohida to'xtalib, 2013  yil ta'lim-tarbiya sohasida islohotlarni chuqurlashtirish, maktablar, lisey va kollejlar, oliy o'quv yurtlarining modday-texnik bazasini yarada mustahkamlash masalalariga katta e'tibor berildi.

O'tgan yili  28  ta yangi kasb-hunar kolleji qurildi. 381 ta umum ta'lim maktabi, oliy o'quv yurtlari tizimidagi 45ta ob'ekt, 131 ta kasb-hunar kolleji va liseylar rekostruksiya qilindi va kapital ta'mirlandi. Shuningdek, 55 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 112 ta bolalar sporti ob'ekti va 4 ta suzish havzasi foydalanishga topshirilib,  zarur ularning barchasi zarur uskuna va invertarlar bilan jihozlandi.

2013 yilda ta'lim-tarbiya tizimini isloh etish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar haqida so'z borar ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodni xorijiy tillarni o'zlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan ishlarni alohida qayd etilgan. Jahonda integrasiya jarayonlari kuchayib, kundalik hayotda kompyuter texnologiyalari va Internet keng joriy etilayotgan bugungi sharoitda chet tillarni puxta bilmasdan va egallamasdan turib kelajakni qurib bo'lmasligini barchamiz yaxshi anglab olmoqdamiz.

## 2.O'qitish metodikasining umumiy masalalari

### 2.1. Didaktikaning mohiyati vas asosiy tamoyillari.

Didaktika ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rgatadi. U grekcha so'z bo'lib, “didayko”-o'qitish, “didaskol”-o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan.

“didaktika”ning so'zma-so'z tarjimasi ta'lim nazariyasini anglatadi. Ta'lim nazariyasi-ta'lim jarayonining tushunchasi va mohiyati ta'lim qoidalari uslublari hamda tashkiliy formalarini o'z ichga oladi. Ta'limning asosiy vazifalarini yosh avlodga ilmiy bilimlar va ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Pedagogik jarayonda har bir bilimni ilmiy asoslab berish; bilim berishda ta'lim oluvchinng imkoniyati va yosh xususiyatlaridan kelib chiqish; mumkin qadar ko'proq ko'rgazma vositalardan foydalanish; muntazamlilik va davomiylikni saqlash; mehnat jarayonida o'quvchilarning faolligi va ongliligini ta'minlash; ta'lim va tarbiyaning tizimli, izchil bo'lishi va uning birligi prinsiplari kiradi.

Bilim berishning ilmiylik tamoyili deb, beriladigan har bir bilimni, avvallari bir necha bor tajribadan o'tgan va o'quvchilarga yaxshi ma'lum bo'lgan bilimlardan kelib chiqqan holda tushuntirishga aytiladi. Bu tamoyilda, yangi berilayotgan bilimni ilmiy asoslab berish bilan birga uning mantiqi, tarixiyligini ham izohlash, tahlil etish talab qilinadi.

Ta'lim oluvchilar imkoniyati va yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyili, xususiyatlarini hisobga olish tamoyili, fiziologiya va ruxshunoslik ilmlarining ta'kidlashlaricha, hech qachon birday iqtidorli bo'lib tug'ilmaydi, uning bilimlarni qabul qilish, tushunish va xotirasida saqlab qolish qobiliyati har kimda har xil bo'lib, ular yosh qo'yilishi bilan o'zgarib, maxsus mashqlar orqali ularni takomillashtirsa bo'ladi. Shu fikrlardan kelib chiqsak,dars berishdan oldin har bir o'qituvchi ta'lim oluvchilar ruhiyatida kechayotgan jarayonlarni yaxshi bilishi shart. Undan tashqari, u har bir bolaning bilimlarni qabul qilish va xotirasida saqlab qolish qobiliyatini, shu kungacha to'plagan bilimlarning turi va hajmidan xabardor bo'lishi lozim.

Ta'limda tarbiyada ko'rgazmalilik tamoyili. Bu tamoyilga amal qilinganda kishining eshitish a'zolari bilan bir qatorda ko'rish a'zolari ham ishtirok etadi. Jahon olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, insonning sezgi a'zolarining insonning sezgi a'zolari orqali olinadigan bilimlarning xotirada saqlab qolish darajasi quyidagicha:eshitish a'zolari orqali olingan bilimlarnng 15-20 foiz esda qolsa, ko'rish orqali olingan bilimlarning 80-85 foizi esda qolar ekan. Shuning uchun ham

ko'rgazmalilik tamoiyli o'quv-tarbiya jarayonining eng asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Muntazamlilik va davomiylik tamoyili. Bu ta'lim va tarbiyadagi zaur fiziologik-psixologik qonuniyat hisoblanib, bilimni mantiqiy bog'liqlikda o'rganishni ta'minlab beradi. Bu tamoyil har bir fan bo'yicha tuzilgan o'quv reja dasturlarda darslik va uslubiy tavsiyanomalarni yaratishda tadbiq etiladi.

Ta'lim-tarbiyani hayot bilan bog'lash tamoyili deb tarbiyani hayot bilan va ishlab chiqarish amaliyot bilan bog'lab olib borishlikka aytiladi. U didaktikning asosiy va etakchi qodalaridan biri bo'lib, bilim faoliyatining ruhiy asoslaridan kelib chiqali. Bu tamoyil ta'limnig boshqa tamoyili bilan ham uzviy bog'liqdir. O'qitish jarayonida olingan nazariy bilimlar amaliy ehtiyoj tufayli kashf qiilinganligini anglab etishga qaratiladi.

Ta'lim bilan amaliyot birligi tamoyillini –o'quv fanining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda o'qitish jarayonida amalga oishriladi. Byuu birlik bilimlarni puxta o'zlashtirish va uni hodisalar bilan bir butun ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiladi.

Ta'limda onglilik va faollik tamoyili. O'quvchilar olayotgan bilimni hayotda qo'llay bilimlar uchun ta'lim berish jaaryonini faol fkrlashga aylantirish kerak. Bunda o'qitishni shunday tashkil etish kerakki, ta'lim oluvchilar bilimlarni mashg'ulotlarda ongli va faol qatnashib egallab olishsin. Shunda talabalarda ong o'sib, ijodiy tashabbuskorlik va o'qfuv faoliyatida mustaqillik tarkib topadi.

Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish o'quvchilarda bilimlarga nisbatan ma'lum munosabat hosil qilishni, hissiy kechinmalar uyg'otishni ham o'z ichiga oladi..

Ta'lim-tarbiyaning tuzilishi va izchillik tamoyili. Ta'lim tarbiyada qat'iy izchillikka rioya qilish kerak, toki bugun o'rganilgan biilmlar kecha o'rganiladiganlarga kelib chiqsin, ularni mustahkamlasin va ertaga o'rganiladiganlariga zamin hozirlasin.

Tizimli va izchillik tamoyili o'qitish jarayonida didaktikaning umumiydan xususiyga va xususiydan yana umumiyga qoidasini hamda o'quv fanlarining bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishni ham ta'minlaydi.

Ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyili-kishilarga bilim berish va bu bilimlarni xayotda qo'llay olishga o'rgatish hamda qo'llay olishga o'rgatish hamda o'quvchilarnnig umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oishirishni taqozo etadi.

Bir butun ta'lim-tarbiya jararyonida ikki o'zaro bog'liqlik bilim berish va bu bilimlar asosida harakat qlishga o'rgatish, bu obe'ektiv borliqdagi qonuniyatni bilish va uning amaliy munosabatini tarkib toptirishda namoyon qiladi. Chunki bilim bermay turib, insonni bu bilimlarni hayotga tadbiq qilishga o'rgatib bo'lmaydi. Bilim berishdan maqsad ham bu bilimni hayotda qo'llashlikdir.

## 2.2. Kasbiy ta'lim berish jarayoni

Ta'lim jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan tashkil etuvchilar (ko'rsatkichlar) – ning o'zaro uzviy bog'liqligi asosida tuzilgan yagona dinamik tizimni tashkil etadi. Dinamik tizim deyishiga sabab, ta'limni va ta'lim jarayonini tashkil etuvchilari jamiyat taraqqiyotiga mos holda muntazam rivojlanishda bo'lib, takomillashtirilib boriladi.

Bunda tashkil etuvchilar quyidagilardir: maqsad; mazmun; shakl, usul; uslub; o'qituvchi shaxsi; talabalardagi dastlabki bilim; o'qitishning moddiy – texnik bazasi va shu kabilar. Bu ta'lim jarayonlarini bir butunlikda, ya'ni yagona yaxlit dinamik tizim sifatida qarash lozimligini taqozo etadi va bunday qarash ta'lim jarayonini boshqarish va boshqarishning optimal variantini topishga ham imkoniyat yaratadi.

O'qitish algoritmini ishlab chiqish orqali olib boriladigan ta'lim jarayonining uzviyligini va uzliksizligini ta'minlovchi qat'iy ketma – ketlik yaratiladi, shuningdek, ta'lim didaktikasini joriy etishning aniq mexanizmlarini yaratish borasidagi ta'lim – tarbiyaviy va pedagogik tadqiqotlar sohalaridagi ishlar yanada rivoj topadi.

O'qitish algoritmi intellektual asr ta'lim – tarbiyasida asosiy pedagogik terminlardan biri bo'ladi, chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalari shu kabi terminlar asosida ta'limda yangicha sifat bosqichiga ko'tariladi.

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Inson tevarak – atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonini tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini o'zlashtirib oladi.

Ta'lim muassasalarida o'rganiladigan o'quv predmetlari soni o'z vazifalari va xususiyatlariga muvofiq tarzda ortib boriladi. Boshlang'ich sinflarda tabiat va

jamiyat qonuniyatlari borasidagi eng oddiy ma'lumotlarni berish asosida ularda dunyoqarash shakllantirilib boriladi. Mazkur bilimlar asosida ta'lim oluvchilar ob'ektiv borliq mohiyatini anglab boradilar.

### 2.3. Darsning tashkiliy shakllarini tanlash va asoslash.

Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatlarimizning tashqi ko'rinishi ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida chex pedagogi Ya.A.Kaminskiy sinf-dars tizmi maqbulligini nazariy jihatdan isbotlab berdi. Shu paytgacha bu tizimdan keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda, lekin unga muqobil tizim yaratilganicha yo'q.

Dars bilim, ko'nikma va malakalar bilan o'quvchilarni qurollantirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli o'quv mashg'ulotlarga ajratilgan vaqtning asosiy qismi dars o'tish uchun sarflanadi.

Darsning mantiqiy tuzilishi va bilish jarayonining xarakteriga qarab, darslar – kirish darsi; egallanadigan bilimlar bilan birlamchi tanishish darsi; yangi bilimlarni egalalash darsi, egallangana bilimlarni amaliyotda qo'llash darsi, ko'nikmalar hosil qilish darsi; umumlashtirish, qaytarish va mustahkamlash darsi; tekshirish darslari; aralash dars, degan turlarga ajratiladi.

Darslar yana ularni o'tish asosiga qarab, quyidagi turlarga ajratiladi:

1.a) dars-leksiya; b) dars suhbat; v) kino darsi; g) nazariy va mustaqil ishlar darsi; d) aralash dars.

2. a) mustaqil ishlar darsi; b) dars-laboratoriya; v) amaliy ishlar darsi; g) dars-ekskursiya.

3. a) og'zaki so'rash; b) yozma sinov; v) sinov; g) sinov amaliy nazorat; d) nazorat ishi; g) aralash darsi.

Bu turdagi darslarning afzalligi yana shundaki, u dars jarayonida hukm suruvchi qonuniyatlarga mos keladi. Bu darslarda o'qituvchi va pedagoglar, o'z sharoitlaridan kelib chiib, ta'lim oluvchilarnnig qabul qilish imkoni, tayyorgarlik daradas va boshqa bir qancha omillarni hisobga olgan darsga ajratilgan vaqtni dars ichidagi to'rt unsurga ixtiyoriy ravishda taqsimlay oladilar.

Har bir darsning muvaffaqiyat uo'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilishga bog'liqdir.

Uzluksiz ta'limning hamma bosqichlarida ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari mavjud. Bularga ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, amaliyotlar va mustaqil ishlar kiradi.

Ma'ruza dars-rejali tashkillashtirilgan aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan ta'lim va tarbiya jarayonidir. Bu jarayonda ma'lum bir mahsus soha bo'yicha nazariy bilimlar tizimli ravishda ta'lim oluvchilarga etkaziladi.

Ma'ruzani bayon qilishda tushunarli, aniq bo'lishini ta'minlash, terminlarni izohlash, zarur miqdordagi misollar va ko'rsatmalar har xil ko'rgazmali vositalardan foydalanishningham ahamyati katta.

Ma'ruza darslarida har xil iuammolar echimini echish yo'llarini qidirish eng yaxshi natijalarga olib keladi. Muammoli ma'ruzalar o'tkazish jarayonida talabalarda ijodiy faoliyatga zarur bo'lganmotivlar, qimmatli yo'l-yo'riqlar va yo'llanmalarning shakllanganligi muxim o'rin egallaydi. Muammoli shquv faoliyati motivlvrining dorkasida juda ko'p motivlarning dorasida juda ko'p motivlar yig'indisi bo'lsada ulardan ikki guruhi belgilangan hisoblanadi: maxsus, o'quv fanlari va bilishga bo'lgan qiziqish motivlaridir.

Amaliy mashg'ulot - aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvi tomonidan boshqarib turiladigan aniq bir topshriqni bajarish uchun kerakli nazariy darsga olingan mahsus bilimlar asosida malaka va ko'nikmalar shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali didaktk harakatga aytiladi.

Talabalarning o'z harakatlarini tashkil etishni shakllantirish va rivojlantirishga, nazorat qilishga yaxshi tashkil qilingan amaliy mashg'ulotlarda talabalarga dars davomida hal qilinishi lozim bo'lgan masala, misol kabi topshiriqlar bajarish uchun beralida o'qituvchi esa uning bajarilishini nazorat qiladi.

Seminar mashg'ulotlari ma'lum bo'lim yoki biror mavzuning ma'ruza bayoni yakunlanganadan so'ng o'tkaziladi. Seminar mashg'ulotiga tayyorlanish talabalardan katta mas'uliyat talab etadi. Talabalar seminar darslariga tayyorgarligi davomida mustaqil o'qishlari kerakli adabiyotlar bilan ishlashlari, ro'znoma va jurnallardan foydalana bilishlari va boshqa mavzuga oid manbalarni izlab topishlari, ularni o'zlashtirishlari kerak bo'ladi.

Seminar mashg'ulotlari ma'ruzada bayon qilingan nazariy qoidalarni mustahkamlaydi. Fan bo'yicha bilimlarni kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Seminar darslarida ko'rgazmali materiallardan foydalanish yaxshi talabalar tomonidan, tayyorlab keltirishgni maqsadga muvofiqdiq bo'ladi.

Mustaqil ish – bu talaba uchun o'quvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarish tushunilib, uning mazmunini, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yorita bilishiga aytiladi.

Mustaqil ishlar turkumiga quyidagi: nazoratlarga tayyorlanish, referat yozish, kurs ishlarini tayyorlanish, referat yozish, kurs ishlarini tayyorlash, diplom loyihalariga tayyorgarlik ko'rish kabilarni kitirish mumkin.

## 2.4 O'quv jarayoniningo'quv me'yoriy hujjatlari. Darsning metodik ta'minoti

Hozirgi paytda zamonaviy dars tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda. Zamonaviy dars deganda-o'qituvchi o'quvchining mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy salohiyatini ishga solib, rivojlanishi ta'minlaydi. O'quvchi esa o'z navbatida, bilimlarni chuqur o'zlashtiradi va ko'nikmasiga aylantirib, ma'naviy barkamollik sari odimlaydi

Darsni zamonaviy tarzda tashkil qilish uchun quyidagi me'yoriy hujjatlar taxt bo'lishi shart.

Darsni boshlashdan avval, birinchidan, o'qituvchi va pedagogning qo'lida o'z fanidan, mutaxassislar tomonidan tuzilgan hamda mutasaddi vazirliklar tasdig'idan o'tgan namunaviy o'quv dastur bo'lishi kerak. Ikkinchidan, shu dasturdan kelib chiqib, ishchi o'quv dasturi tuzilgan bo'lishi shart.Uchinchidan, jadvalidan kelib chiqib, taqvimiy o'quv reja tuzilgan bo'lishi kerak. To'rtinchidan, ushbu o'quv fanidan o'tilayotgan har bir dars uchun konspekt yoki ma'ruzalar matni yoki pedagogik texnologiya asosida darsning loyihasi tuzib chiqilgan bo'lishi lozim. Shular bilan bir qatorda, har bir darsning ishlanmasi va texnologik xaritasi bo'lishi kerak.

Shuningdek, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar va boshqa bir qator didaktik materiallar talab qilinadi. Talabalar mustaqil ish mavzulari, konsultasiya va qoldirgan dasrlarni qayta topshirish jadvali, baholash mezonlari va test savollari jamuljam bo'lishi shart.

O'quv qo'llanmalar, asosan, tajribali pedagoglar tomonidan alohida tayyorlangan bo'lib, u dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchi-talabalar dars mazmuniga yaxshi tushunib etishlari uchun xizmat qiladi. Bularga har turli ko'rgazmali qurollar, tarqatmali materiallar, turli muammoli vaziyatlarni yaratiladi.

Pedagogik usul va uslublar. Dars jarayoni faqat pedagogik usul va uslublar orqali amalga oshirilib, darsning ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogsiz va

talabasiz usullar va uslublarsiz darsni amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun, darsga kerak bo'ladigan me'yoriy hujjatlar qatoriga dars o'tish usul va uslublari tizimi qo'shilsa, ayni muddao bo'lar edi. Bu usullar to'plami o'qituvchi-pedagoglar uchun katta qulaylik yaratardi. Darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida, qaysi usulni qo'llasam ekan, deb o'ylab o'tirmay, tayyor usullar tizimi ichidan tanlab olishlari mumkin.

Ta'lim jarayoni o'quv axborotni va uni mantiqiy o'zlashtirishni anglashni tashkil qilishni ko'zda tutadi. Bilimni uzatish va uni ko'nikmaga aylantirish usullaridan tashqari, o'quv faoliyatini rag'batlantirish hamda ta'limda burch va mas'uliyatni asoslash usullari ham mavjud.

Shu bilan bir qatorda, ta'lim jarayonini nazorat qilish va ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish usullari ham mavjud bo'lib, ularsiz ham ta'lim-tarbiyani amalga oshirib bo'lmaydi. Va nihoyat, o'qituvchi tomonidan etkazib berilgan bilimlar,o'quvchi va talabalarning qanchalik o'zlashtirib olganligini aniqloqchi usullar hisoblanadi.

Yoshlarni tarbiyalash jarayonida ma'naviy-intelektual rivojlanish sifatlarini aniqlashning aniq maqsad va vazifalari ishlab chiqilgan. O'quvchi va talabalarning ma'naviy-intelektual shakllanish sifatlaridagi yutuq va kamchiliklarinni rag'batlantirish, tuzatish, tarbiya mazmunini, usul, uslub va tashkiiliy shakllarini yaxshilashga mos tuzatishlar kiritilishi ko'zda tutiladi.

Talabalarning bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi muhim masala hisoblanadi. Shu bilan birga, nazorat va baholash jarayoni o'quvchi bilimiini boyitishga, ular shaxsini rivojlantirishga va tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

## 2.5.Ta'lim metodlarini tanlash va asoslash

Kasb-hunar kollejlaridagi o'quv-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirishda o'qitish metodlarining tanlanishiga katta ahamiyatt beriladi. Chunki, o'qitish metodi o'qitishning maqsad-mazmuni, shakli, usullari tizimida muhim o'rinni egalla, o'quv jarayonidan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijani kafolatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda metod – tabiiy va ijtimoiy xayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli, harakt qlish tarzi sifatida izohlanadi.

Bizning fikrimizcha, metod-maqsadga eltuvchi yo'l, ya'ni maqsadga erishish yo'ldagi xatti-harakatlarning o'ziga xosligidir.

O'qitish metodlari o'quv jarayonining asosiy qismi hisoblanib, tegishli o'quv jarayonining asosiy qismi \isoblanib, tegishli metodlarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.

O'qitish metodlari ta'lim oluvchilarning idrok etish-bilish faoliyatiga,qo'llanilish va didaktik maqsadiga ko'ra turlicha tasniflanadi.

Masalan, pedagog olim Yu.K.Babanskiy o'qitish jarayoniga yaxlit yondashish asosida metodlarning uch guruhini ajratadi:

O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari:

a) og'zaki, ko'rgazmali, amaliy (o'quv axborotlarini uzatish va qabul qilish aspekti);

b) induktiv va muammoli-izlanish (mantiqiy aspekt)

v) reproduktiv va muammoli-izlanish (tafakkur aspekti);

g) mustaqil ish va o'qtuvch rahbarligidagi mustaqil ish metodlari (ta'limni boshqarish aspekti)

2. O'quv-bilish faoliyatini motivasiyalash va stimullash metodlari:

a) o'rganish qiziqish uyg'otishni stimullash va motivasiyalash metodlari;

b) o'rganishda burch va mas'uliyatni stimullash va motivasiyalash metodlari.

3. O'quv-bilish faoliyatini nazorat qilish va o'z –o'zini nazorat qilish metodlar:

a)og'zaki,yozma, amaliy-laboratoriya metodlari.

Ma'lumki, kasb-hunar kollejlarida o'quvchi zamonaviy fan asoslarni o'rganadi va muayyan ixtisoslik

bo'yicha ta'lim oladi.Shu nuqtai nazaridan kasb-hunar kollejlaridagi o'qitish metodalri ta'lim oluvchilarni kasbiy va shaxsiy tayyorgarliklarni shakllantirishga, ularning mustaqil va ijodiy bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan maktab metodlaridan ajralib turadi.

Kasb-hunar kollejlaridagi o'quv jarayoni va bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish o'qitish metodlarini to'g'ri tanlanishi bilan belgilanadi. O'qitish metodlarining to'g'ri tanlanashi va amalga oishrilishi ta'lim oluvchilarnnig bilimi va rivojlanganlik darajasi, o'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy tayyorgarligi, shuningdek, moddiy-texnik ta'minot va yaratilgan shart-sharoitlar bilan bevosita bog'liqdir.

Fan-texnika va ishlab chqarish sohasdagi jadal o'zlashtirishlar ta'lim-tarbiya tizimdagi ba'zi muammolarni yuzaga chiqishga olib keldi. Ya'ni an'anaviy ta'lim shaklidagi zqitishning shakl, metod, vosita va usullari jamiyatning bugungi rivojlanish bosqichi uchun xizmat qiladigan shaxslar, mutaxassislar tayyorlash jarayonida o'zini oqlay olmadi. Bugungi kunda o'qitish metodlarini klassifikasiyalashga qo'yilayotgan zamonaviy talablar:

a) bilimlarni passiv o'zlashtirish jarayonini faol o'zlashtirish jarayoniga aylantirish stimullash;

b) yangi bilimlarni o'zlashtirish va ulardan amalda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Shu boisdan, bugungi kunda ta'lim oluvchi shaxsning individualligi, o'ziga xosligi va ehtiyojlari doirasidan kelib chiqib, o'qitishni tashkil etishga xizmat qiluvchi innovasion o'qitish metodalri tizimini yaratish va amlga oshirish masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

## 2.6. Ilg'or pedagogik texnologiya

Texnologiya so'zi (yunoncha) “texnos”-san'at, hunar, “logos”-fan, “pedagog” esa boshqaruvchi, etaklovchi (ta'lim-tarbiyaga) ma'noni anglatadi.Aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologiya jarayon.

Ilg'or pedagogik texnologiya “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” asosida olib borilayotgan tub islohotlar asosiy yo'nalishlarining bosh harakatlantiruvchi kuchidir. Ilg'or pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, bunda 3-ming yillikda tub burilishlar, bilimga chanqoqlik, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, ma'naviy va ruhiy barkamollik tizimli ravishda shakllantiriladi.

Ayrim pedagoglarning fikricha, pedagogik texnologiya bu-o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belglangan shaxs sifatlarini ntensiv shakllantirish jarayonidir. Uslub (metod) o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuidir. Pedagogik texnologiya esa o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan yig'indidir.

Mustaqillik sharofati bilan ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifasini to'laligicha yangilash zaruriyati tug'ildi. Bundan kelib chiqqan holda;

- ko'p bosqichli ta'lim tizimida pedagogik tenologiyaning o'rinni aniqlash;
- zamonaviy iqtisodiyot, sanoat, tibbiyot, ekologiya sohasi texnologiyalar bilan pedagogik texnologiyani muntazam yangilab borish, tabaqalashtirilgan holda yondashuv asosida uning asosiy mezonlarini aniqlash;
- istiqbolli o'qitish vositalarini yaratish va unga tayangan holdailg'or pedagoigk texnologiyalarni loyihalash, amaliyotga joriy etish, ommalashtirish, samarasini aniqlash;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni diagnostika qilish, korreksion va nazorat, baholash ishlarini joriy etish;
- malaka oshirish va qayta tayyorlashning uzluksizligini ta'minlash;
- ilg'or pedagogik texnologiya asoslarini oliy va o'rta mahsus o'quv yurtlarida o'qitish;
- jodkor o'qituvchilar ishini o'rganish va ommalashtirish;
- bu ishlarni amalga oshirish uchun pedagogik texnologya Davlat markazlarini tuzish.

Pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga tezda kiritish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:
- dars jarayonida ta'lim-tarbiyaga o'quvchi asosiy haraktlantiruvchi kuch, ta'lim jarayonining sub'ekti bo'lishga erish (ya'ni o'quvchi zimmasida o'qish, o'rganish, mutoala qilish va h.k).
- o'qituvchi o'quvchini ehtiyoj tug'dirish, muhit yaratish va undagi mas'uliyatli foydalanishni sezishga o'rgatish;
- darsning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, kasbga yo'llovchi maqsadlarini amalga oshirishda o'quvchi va o'qituvchi hamkorligi va harakati.

Pedagogik texnologiya qanday qilib, qanday usullar bilan ta'lim jarayonini tashkil etilsa, natija yaxshi bo'ladi, degan savolag javob beradi va o'quvchilarda quyidagilarni shakllantiradi:
- bolaning talabi, moyilligi, istak-hohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
- o'quvchning o'quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash malakasini shakllanadi;
- shaxsning jamiyatda o'z o'rinini tezroq topib olishiga muhit yaratiladi.

Ilg'or pedagogik tajriba sohiblarininig kabineti, jihozlari, ko'rgazmali qurollari, ilmiy maqola va boshqa ishlari baholanib, darsni tashkil etish, o'quvchi

faoliyatini joriy etish, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini rivojlantirish, o'qitish emas, o'qitishga o'rgatish kabi tamoyillar hisobga olinishi lozim.

Ilg'or pedagogik tajribaning asosini tashkil etuvchi yuqorida aytilgan tamoyillar qanday darajada joriy etilganligi va uning natijasini aniqlashdan iborat. Chunki o'qituvchi ta'lim mazmunini, darslikni, Davlat ta'lim standartlarini, dastur va boshqalarni o'zgartira olmaydi, lekin yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim-tarbiya jarayoniga ijobiy yondashib, uni boshqacha tashkil etishi mumkin. Tashkil etganda ham quyidagi qoidalarga javob berishi lozim:

- dars, (o'quv, ta'lim jarayoni) ta'lim qanday psixologik qonuniyatlar asosida tashkil etilgan; va rivojlantirishning bog'liqligi
- bu tajribada ta'lim va rivojlantirishning bog'liqligi (qaysi, qanday va h.k.);
- tafakkur (fikrlash) qay darajada, qanday turlari rivojlantiriladi;
- shaxsiy xususiyatlar qanday yo'llar bilan rivojlantirilgan;
- mustaqil bilim olish, munosabat va muloqot qay darajada, qanday yo'llar bilan amalga oshirilgan.

Darsni tashkil etish va tashkiliy qismi, darsning borishi deganda biz o'qituvchining o'zaro munosabat va muloqoti, darsning tuzilishi (o'quv ta'lim jarayonining), o'qituvchining boshqaruvchanlik, o'quvchining esa o'qish jarayonida faolligini tushuniladi.

## 2. 7. Kompyuterli texnologiyalar dasturli o'qitish asosi

Keyingi vaqtlarda «o'qitishning kompyuter texnologiyalari» tushunchasi tarqalib, bunda kompyuterlar bazasida amalga oshirilgan o'qitish texnologiyalari tushuniladi. Biroq axborot texnologiyalari tushunchasi o'qitishning kompyuter texnologiyalari tushunchasidan kengroqdir, chunki kompyuterlar axborot texnologiyalari texnik vositalarining tarkibiy qismidir.

Bugungi kunda turli optik xotirlovchi qurilmalar (videodisklar, optik disklar) keng tarqaldi. Ulardan foydalanish matnli grafik axborotni bir vaqtda birgalikda yozish imkonini beradi, shu bilan birga uni qayta tiklashda yuqori sifatli tasvir paydo bo'ladi. Magnit yozuvdan farqli o'laroq, optik disklardagi yozuv istalgan sondagi qayta tiklashlarda ham yomonlashmaydi. Kompyuterlar ishining dastur-matematik ta'minoti yuqori texnologik ishlab chiqarish taraqqiyotining muhim yo'nalishi bo'lmoqda.

Shuningdek, texnik va dasturli axborot texnologiyalari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

EHM tarmoqlari. Hozirgi vaqtda bilimlarning barcha sohalarida EHM yoki kompyuter (lokal yoki global) tarmoqlari keng tarqalgan. EHM lokal tarmoqlari uncha katta bo'lmagan fazoda amalga

oshiriladi va axborot xizmati turli tarmoqlarining integratori bo'ladi. Ular tashkilotlardagi barcha axborot texnologiyalari vositalarini birlashtiradi hamda ularning samaradorligini oshiradi. EHM global tarmoqlari esa, axborotni katta masofalarga uzatilishini amalga oshirish imkonini beradi.

Yo'ldosh aloqa tizimlari. Ko'plab er ustidagi stansiyalarni va er sun'iy yo'ldoshidagi retrenslyatorlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunga kelib, bu tizimlar kompyuterlar orasidagi aloqani amalga oshirish uchun ma'lumotlar to'plash televidenie dasturini uzatish uchun ishlatilmoqda.

Sun'iy intellekt tizimlari. Sun'iy intellekt elementli EHMning odatdagi EHMdan farqi shundaki, odatdagi EHMlar faqat statistik ma'lumotlarni, sun'iy intellekt tizimlari esa bilimlarni ishlab chiqadi. Informatikaning alohida yo'nalishi sun'iy intellektdir. Odam aqliy faoliyatining ba'zi turlarini amalga oshiruvchi dasturli-texnika vositalari ishlab chiqilmoqda.

Elektron pochta. «Elektron pochta» – bu korrespondensiyalar almashishi uchun pochtaga o'xshash axborot uzatish va ishlab chiqishning elektron usullaridan foydalanish, ya'ni bosma materiallar, jadvallar va jurnallarni uzatish hamda elektron pochta qog'ozsiz pochta aloqalari xizmatidan iborat bo'lib, u xabarlarni to'plash, ishlab chiqish va taqdim etish hamda ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari tizimidir.

Telekonferensiyalar. Telekonferensiyalar zamonaviy axborot texnologiyalarning amalga oshirilishiga misol bo'la oladi. Telekonferensiyalarni o'tkazish uchun quyidagi apparaturalardan foydalaniladi: terminallar, televezion kameralar, grafik displeylar, katta namoyish ekranlari. Shuningdek, telekonferensiyalar orqali dolzarb masalalar muhokamasini tezkorlik bilan tashkil etish, muhokama uchun istalgan rasmli materiallardan foydalanish, dolzarb masalalarni muhokama qilishda ishtirok etuvchi mutaxassislar doirasini kengaytirish, xalqaro ma'lumotlar banklaridagi istalgan axborotdan foydalanish kabi imkoniyatlar yuzaga keladi.

## 2.8. Masofaviy ta'lim texnologiyasi haqida tushuncha.

Masofaviy ta'lim o'vitishning mukammalashtirilgan shakli bo'lib, u o'zida yangi axborot texnologiyalari va multimediya tizimiga asoslangan ta'limning kunduzgi-sirtqi, sirtqi va kechki elementlarini mujassam etadi.

Zamonaviy kommunikasiya vositalari va elektron nashrlar an'anaviy o'qitish shakllarnining kamchilklarini bartaraf etishga imkon beradi va bunda ularning barcha afzalliklarini o'zida saqlab qoladi.

Bunda o'qitishning vazifasi-ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, ularda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantirish va aqliy salohiyati ortishini ta'minlash, ularni nostandart masalalarni hal etish va noqulay vaziyatlardan chiqib ketishni

o'rgatishdan iborat. U masalalarni echish davomda ta'lim oluvchiga ko'maklashish, uning yo'l qo'ygan, samarali o'qitishni tanlash kabi vazifalarni bajarishda qo'llaniladi.

Masofadan ta'lim insonning ijtimoiy tajribalarni qamrab olgan madaniyat, uning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanish natijalariga sifat jihatdan katta ta'sir ko'rsatadi va xulq-atvori meyorini belgilaydi.

Ma'lumki, ta'lim-ishlab chiqarishning asosiy aspektlaridan biri sanaladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot esa juda katta tezlik bilan rivojlanmoqda. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining zamon talabiga mos mutaxassislar tayyorlashdagi va mavjud mutaxassislarni qayta tayyorlash masalasini masofaviy o'qitish texnologiyasini yo'lga qo'yish bilan samarali tayyorlash imkoniyatidan foydalanish ayni dolzarb masalalardan biri xisoblanadi.

Masofaviy o'qitishni tashkil etishda nafaqat o'quvchi yakka holda o'qish imkoniyatiga ega, balki jamoa(kollektiv) bo'lib avvalo loyixalar to'zib so'ngra elektron konferensiyalar, forumlar o'tkazish usuli bilan ham interaktiv usulda o'qishni amalga oshirishi mumkin. Umuman olganda, **masofaviy o'qitishni tashkil etish** quyidagicha amalga oshiriladi:

- ✓ Qo'yilgan maqsad bo'yicha o'qishni rejalashtirish- **Maqsad,**
- ✓ O'quvchi faoliyatini jiddiy rejalash- **Reja,**
- ✓ O'quv-metodik materiallar bilan etarli ta'minlash- **Materiallar,**
- ✓ O'quvchining o'quv yurti bilan effektiv aloqa o'rnatishi - **Aloqa,**
- ✓ Bilim olish monitoringi – **Monitoring,**
- ✓ O'zlashtirish natijalarini baxolash tizimini tashkil etish- **Nazorat.**

**Demak, masofaviy afzalliklari quyidagilardan iborat:**

**1. Mustaqil o'qish-**

a. erkin fikrlash,

b. holatni baholash,

c. xulosa va

d. bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

**2. O'quvchi o'ziga qulay vaqtda va xattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin.**

**3. O'qish muddatini o'quvchi o'zi belgilaydi-**

a. talaba ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi,

b. materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi.

**4. Iqtisodiy jixatdan qulay va tashkiliy iqtisodiy afzalliklarga ega bo'lib-**

a. o'qitishni tashkil etishda auditoriyalar,

b. yotoqxonalar zarur emas.

## 2.9. Masofaviy ta'limning asosiy didaktik tamoyillari

Ma'lumki, bugun masofaviy ta'lim, ta'limni rivojlantirishning tarkibiy qismiga aylandi. Shu bois ta'limning an'anaviy didaktik tamoyillari masofaviy ta'lim shakllari uchun ham asos bo'lib, ta'limning bunday texnologiyasi takomillashib boradi, ya'ni yangi o'quv muhiti uchun yangi shartlar va mezonlar bilan to'ldiriladi.

An'anaviy o'qitishda ta'limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarga yo'naltirilganlik tamoyiliga ko'ra, o'qituvchi tomonidan talabalarda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirayotib, aniq bir mavzu bo'yicha darsning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi salohiyatini unutmaslik nazarda tutiladi.

Masofaviy ta'limda bu tamoyil, tinglovchini bilish faoliyatining kreativ tavsifi tamoyili ko'rinishida talqin qilinadi. Kreativ axborot texnologiyasi **interfaol** bo'lib, tinglovchidan tashqi dunyo axborotini o'z tavsifi, intilishi bilan xususiy holga almashtirishni talab qiladi, ya'ni masofaviy ta'limning kreativ tavsifi, masofaviy-ijodiy faoliyati asosidagina amalga oshirilishi mumkinligini ma'lum qiladi.

O'qitishning ilmiylik tamoyilini masofaviy ta'lim jarayonida amalga oshirish tinglovchilarni ma'lum fan bo'yicha o'qitishining mazmuni bo'yicha ilmiy dalillar, tushuncha va qonuniyatlari hamda nazariyalar bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Ilmiylik tamoyili tinglovchilardan ilmiy izlanishning bilim va malakalarini rivojlantirishni talab qiladi. Buning uchun o'qitishda, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarini bajarishda tadqiqotning muammoli elementlarini joriy qilishni talab qiladi. Mazkur tamoyilni masofaviy ta'limda qayta shakllantirish yana ham fundamental tus oladi.

**Ta'limning fundamentalligi** tinglovchining bilish bo'yicha talablarga mosligini tavsiflovchi **didaktik tamoyil, psixologik talablarga nisbatan** quyidagi aniq **mezonlarni** ilgari suradi:

- ✓ ta'lim oluvchining yuqori motivasiya talablari;
- ✓ shaxsning qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilganligi;
- ✓ muloqotga nisbatan etarlicha yuqori qobiliyat;
- ✓ o'z xatolarini tuzatib borishi,
- ✓ o'zini rivojlantirish bo'yicha intilishi
- ✓ tinglovchining tashqi ta'limiy mahsulotlarga nisbatan ichki shaxsiy talablarining mosligi.

Bu tamoyilga ko'ra tinglovchi, bir mavzu bo'yicha, kamida, ikkita ijodiy ishni bajarishi talab etiladi. Bu tamoyil ijodiy rusumdagi masofaviy o'qitishni, ta'limning ma'lum hajmdagi mazmunini o'zlashtirishnigina nazarda tutgan an'anaviy rusumidan keskin farqlaydi.

Shuningdek, masofaviy o'qitishda, aniq faoliyat yo'li bilan axborotlarni qabul qilishning erkin tanlash tamoyilini ham yuqoridagi tamoyilning davomi sifatida qabul qilish mumkin.

**Tizimlilik va ketma-ketlik tamoyili** esa an'anaviy o'qitishda bilimlar, o'quv va malakalarni ma'lum tizimda, aniq ketma-ketlikda va o'quv materialining har bir yangi elementini bir-birlari bilan uzviy bog'lanishda va mantiqiy ketma-ketlikda tushishini taqozo qiladi.

Masofaviy ta'limda o'quvchining individual ta'lim olish bo'yicha chiziqli tamoyili shakllanadi. O'quvchining o'z ta'limini faollashtirish maqsadida, o'quv jarayonining barcha metodologik darajalarida tanlash tizimi shakllantirilgan bo'lib, u ta'lim oluvchining bu sohada o'z shaxsiy maqsadini aniq qo'yishini, mashg'ulotlarning ustuvor yo'nalishlarini hamda ta'limning turli sohalarida o'qitishning shakl va tezkorligini tanlash va ta'minlashni ko'zda tutadi.

## 2.10. Masofaviy ta'limning asosi INTYERNYET

Axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish va INTYERNYETning shakllaanishi tufayli zamonaviy ta'lim tizimi o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi, ya'ni axborot-ta'lim muhitining shakllanishi va rivojlanishi kuzatilmoqda.

Jahon kompyuter tarmog'i – INTYERNYET va yangi virtual o'qitishning kompyuter tizimlari asosida ta'lim mahsulotlari va xizmatlari bozori jadal rivojlanmoqda. Endilikda jahon tadbirkorlik tizimida elektron tijorat o'z o'rnini topgan vaqtda, elektron ta'lim INTYERNYETning eng istiqbolli rivojlanish sohasi sanalmoqda.

Masofaviy o'qitish INTYERNYET kompyuter tarmog'i shakllanganga qadar ta'lim tizimining shakli sifatida rivojlanib kelingan. Dastlab o'quv-metodik materiallar maxsus jamlanib talabalarga mustaqil o'qishlari uchun etkazib berilgan. Mashg'ulotlar o'tkazish va ma'ruzalar o'qish uchun televideniya texnologiyalaridan foydalanildi. Vaqt o'tishi bilan qog'ozdagi darsliklar va qo'llanmalar o'rnini CD, DVD-ROM disklar egallamoqda.

INTYERNYET tizimining paydo bo'lishi bilimlarni tarqatish texnologiyalarining rivojlanishiga, talaba va o'qituvchilarga elektron darsliklar va kutubxonalardan foydalanishga, bilimlarni testlar orqali sinashga, yangi o'zaro muloqot vositasini shakllanishiga asos bo'ldi. Shunday qilib, INTYERNYET ta'lim muhitida axborot madaniyatini oshishiga zamin yaratildi.

INTYERNYET tizimida mavjud ta'lim resurslarini shartli ravishda 3 guruhga ajratish mumkin:

1. INTYERNYET texnologiyalariga asoslangan shaklda faoliyat yurituvchi muassasalar kiradi.

- Ularda ta'lim kursini tanlash,
- kurs uchun to'lovlar,
- talabalar uchun mashg'ulotlar,

- nazorat topshiriqlarini yuborish va
- ularni javobini tekshirish,
- oraliq va yakuniy imtihonlarni topshirish tarmoq orqali amalga oshiriladi.

Bunday ta'lim muassasalari «virtual universitetlar» deb yuritiladi. Bunday universitetlar dasturiy ta'minotga bo'lgan talabning yuqoriligi va dastlab katta moliyaviy xarajatlar zarurligi sababli ko'p emas;

2. Ko'pchilikni tashkil etadigan o'quv maskanlari tashkil etadi. Ularda an'anaviy ta'lim masofaviy o'qitishning zamonaviy vositalari bilan qo'shib olib boriladi. Bunday ta'lim muassasalari o'zlarining ma'lum kurslarini elektron shaklga o'tkazib, INTYERNYET texnologiyalari orqali o'qishlarni tashkil qilish bilan birga, an'anaviy imtihon sessiyalarini tashkil etmoqdalar. Ya'ni o'quv jarayonini qisman kompyuterlashtirishga erishilgan;

3. INTYERNYETdan o'zlarida ichki kommunikasiya muhiti sifatida foydalanayotgan ta'lim muassasalari kiradi. Ular o'zlarining INTYERNYETdagi saytlarida o'quv materiallarini joylashtirishgan.

**Masofaviy o'qitishga mo'ljallangan o'quv materiallarini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari**

**To'laqonli onlayn o'qitish loyihasi**

- ko'rsatma,
- axborot,
- nazorat,
- kommunikativ va
- boshqarish bloklaridan iborat bo'ladi.

**Masofaviy o'qitish kursi faqatgina**

- mashg'ulotlar matnigina emas, balki,
- tarmoqda zarur axborotlarni qidirish,
- ma'lumotlar almashish,
- ma'lumotlar bazasiga murojaat etish,
- INTYERNYET tizimidagi davriy axborot manbalaridan foydalanishdir.

Masofaviy o'qitish o'zining xususiyatiga ko'ra individiual o'qish bo'libgina qolmay, o'qituvchi va boshqa o'quvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatini ham rivojlantirishi zarur.

Masofaviy o'qitishning sifati o'quv kurslarini tashkil etilishiga bog'liq. Agar kurs o'qitish uchun, ya'ni tinglovchi va o'qituvchi muloqoti uchun yaratilgan bo'lsa, u holda bunday kursni tashkil etish talablari, o'quv materiallarini tanlash va ularning to'zilmasi muloqot xususiyatlaridan kelib chiqqan bo'lishi kerak. Agar kurs mustaqil ta'lim uchun yaratilgan bo'lsa (bunday kurslar INTYERNYET tizimida juda ko'p), u holda o'quv materiallarini tanlash, kurslar to'zilmasi va

tashkil etilishi boshqacha bo'ladi. Kurslar telekommunikasiya tarmog'i sharoitidagi tinglovchi va o'qituvchi muloqotining xususiyatlari asosidagi talablardan kelib chiqib tashkil etilishi lozim.

Bunda o'rgatuvchi kurslar yaratishning umumdidaktik tamoyillar, axborotlarni qabul qilish bilan bog'liq psixologik xususiyatlar, ergonomik talablar, ikkinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikasiya tarmoqlarining dasturiy vositalari yaratgan imkoniyatlardan maksimal foydalanish hisobga olinishi zarur.

Masofaviy kurslarni yaratishda tinglovchilar guruhining xususiyatlarini inobatga olgan holda masofaviy o'qitish metodikasi tanlanadi.

Malaka oshirish tizimida masofaviy o'qitishda o'qitish samaradorligi quyidagi 4 ta tashkil etuvchiga bog'liq bo'ladi:

a) tinglovchi va o'qituvchining samarali muloqoti;

b) qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar;

c) yaratilgan o'quv-metodik materiallarning sifati va ularni tinglovchiga etkazish;

d) teskari aloqaning mavjudligi hamda samarasi.

Boshqacha qilib aytganda, masofaviy o'qitishning samarasi o'quv materiallarining sifatiga va pedagoglarning mahoratiga bog'liq.

**Elektron o'quv nashrlari moslashuvchanligi**

Elektron o'quv nashrlar yaratish jarayoni masofaviy ta'lim borasida Oliy O'quv Yurti faoliyatining etakchi yo'nalishiga aylanib bormoqda. An'anaviy o'quv jarayonida bilimni boshqaruvchi vazifasini o'qituvchi bajarsa, masofaviy ta'limda talabaning o'zi bajaradi. Bunday talablarga javob beradigan elektron o'quv nashrlarini (Elekton o'quv nashr) yaratish murakkab didaktik talablarni o'z ichiga oladi, lekin hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari bu muammoni hal qilishda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bunda quyidagi talablarga e'tibor qaratish lozim:

- kursning bo'limlar birligida namoyish qilinishi;
- mundarija bo'limlariga to'liq ruxsat etilishi;
- turli ko'rinishdagi ma'lumotlardan foydalanish;
- o'quv materialining o'rganuvchi xususiyatlari yuzasidan moslashuvchanligi.

Elekton o'quv nashrni yaratishda turli darajadagi o'rganuvchilar uchun individual ta'lim xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bunda qanday ma'lumot tasvirlanayapti, qanday qilib, qanaqa ketma-ketlikda, qaysi o'qitish uslubiyati qo'llanilmoqda – bularning hammasi ma'lum o'quv jarayonining individual chizgilari hisoblanadi.

## 3. Ijtimoiy-iqtisodiy masalalar majmuasi

### 3.1. Kichik biznes sub'ektlari miqdoriy chegarasining takomillashuv bosqichlari

O'zbekiston o'zining tarixan qisqa muddatli, biroq amalga oshirilayotgan tub islohotlar va o'zgarishlar mazmun-mohiyati, ko'lami jihatidan beqiyos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti davrida olamshumul muvaffaqiyat va natijalarga erishmoqda. Bunday yutuqlar negizida, eng avvalo, mamlakatimiz rahbari tomonidan mustaqil taraqqiyotning “o'zbek modeli” to'g'ri tanlanganligi, uni amalga oshirish borasida olib borilgan samarali, qat'iy va izchil iqtisodiy siyosat va, eng muhimi, mehnatkash xalqimizni bunyodkorlik va yaratuvchanlik tomon harakatlantiruvchi yuksak milliy g'oya yo'lida jipslashtirish, ularning ertangi kunga bo'lgan  mustahkam ishonch va intilishlari shakllantirilishi yotadi.

Mustaqil taraqqiyot davrida mamlakatimiz iqtisodiyotini zamon talablari asosida tarkibiy o'zgartirish, iqtisodiy munosabat va jarayonlarni erkinlashtirish, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizasiyalash orqali yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, aholi bandligi va farovonligini oshirishning muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 2011 yil Prezidentimiz tomonidan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb e'lon qilinib, yil davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifa va chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan maxsus Davlat dasturi ishlab chiqildi.

Ushbu chora-tadbirlarning o'ziga xos ahamiyati haqida to'xtalib, mamlakatimiz rahbari “Alohida katta e'tiborni talab etadigan yana bir masala shuki, hozirgi vaqtda yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosan savdo-sotiq, xizmat va aloqa sohasida , qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha ko'proq rivoj topmoqda. Lekin, shu bilan birga, sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda, innovasion va innotexnologiyalar, farmakologiya va farmasevtika, axborot-kommunikasiya tizimi, biotexnologiya, muqobil energetika turlaridan foydalanish sohasida, muxtasar aytganda, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangankichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berishimiz zaurur”, deb ta'kidladilar. Bu esa zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanib, talabga javob beruvchi tayyor mahsulot ishlab

chiqaruvchi, innovasion loyiha va ishlanmalarni amalga oshiruvchi, kichik biznes sub'ektlarini ustuvor darajada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mustaqillik yillaridagi rivojlanish jarayonlariga baho berar ekanmiz, eng avvalo, bugungi kunga qadar kichik biznes tarkibiga kiruvchi korxonalarning chegaralarini aniqlash o'ziga xos tadrijiy rivojlanish bosqichlari orqali amalga oshirilib kelinayotganligini ta'kidlash lozim. Har bir muayyan bosqichda belgilangan miqdoriy chegaralar Prezidentimiz farmonlari hamda hukumatimiz qarorlariga asoslanadi. Bularning barchasi mazkur soha rivojining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi yuksak ahamiyatidan darak beradi (1-jadval).

1-jadvaldan ko'rinadiki, mustaqillikni ilk davridanoq mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular faoliyatini davlat tomonidan samarali tartibga solish maqsadida alohida soha sifatida belgilab olishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Iqtisodiyot rivojlanishi, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay muhit yaratilishi natijasida kichik biznes sub'ektlari sifat va miqdoriy jihatdan taraqqiy etgan sari ularning miqdoriy chegaralari ham takomillashtirib borilmoqda. Ushbu jarayonlarni, ulardagi miqdoriy o'zgarishlarni yaqqolroq ifodalash maqsadida alohida jadvaldan foydalanish maqsadga muvofiqdir (2-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sub'ektlari turli chegaralarining amal qilish bosqichlari

| Bosqich | Yillar | Tegishli me'yoriy hujjat |
|---|---|---|
| I | 1992-1995 | “O'zbekiston Respublikasida kichik korxonalar to'g'risidagi Nizom” (Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 26 fevraldagi 85-sonli qaroriga 2-ilova) |
| II | 1995-1998 | O'zbekiston Respublikasining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida”gi qonuni (1995 yil 21 dekabr) |
| III | 1995-2003 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni (1998 yil 9 aprel) |
| IV | 2003 йилдан ҳозирга қадар | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirishchora-tadbirlari to'g'risida”gi |

| | | |
|---|---|---|
| | | farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi farmoni (2003 yil 30 avgust); O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikasiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (2003 yil 11 oktyabr) |

Mustaqillik davrida malakatimizda kichik biznes faoliyatiga oid dastlabki me'yoriy hujjat – "O'zbekiston Respublikasidagi kichik korxonalar to'g'risidagi Nizom" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 26 fevraldagi 85-sonli qaroriga 2-ilova) qabul qilinib, unda kichik korxonalarning miqdoriy chegaralari belgilab berildi. O'sha davrda respublikamizda hali o'rta va yirik korxonalar ko'lamlari miqdoriy chegaralari mavjud emasligi kichik biznes sohasi asosan kichik korxonalar faoliyati orqali belgilanishiga olib keldi.

2-jadval

O'zbekistonda 1992-2003 yillarda kichik va o'rta biznes korxonalari miqdoriy chegaralarining belgilanishi

| Tarmoq yo'nalishi | 1992 yil 26 fevraldagi ilovaga binoan | 1995 yil 21 dekabrdagi qonunga binoan | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi farmoniga binoan | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Mikrofirma | Kichik korxona | O'rta korxona |
| Sanoat | 200 kishigacha | 50 kishigacha | | 40 kishigacha | 40-100 kishi |
| Qurilish | | | | | 20-50 kishi |
| Qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarishni boshqarish sohasining boshqa tarmoqlari | 50 kishigacha | 25 kishigacha igacha | 10 kishigacha | 20 kishigacha | 20-30 kishigacha |
| Ulgurji savdo | | | | | |
| Chakana savdo | 15 kishigacha | 5 kishigacha | | | |
| Fan va ilmiy xizmat ko'rsatish | 100 kishigacha | 10 kishigacha | 5 kishigacha | 10 kishigacha | 10-20 kishigacha |
| Noishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlari | 25 kishigacha | 10 kishigacha | | | |

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mustaqil taraqqiyotning ilk davrida kichik korxonalarning miqdoriy chegaralari nisbatan kenroq, ya'ni sanoat va

qurilishda – 200 kishigacha, fan sohasida va ilmiy xizmat ko'rsatishda – 100 kishigacha, ishlab chiqarishi sohasining boshqa tarmoqlarida – 50 kishigacha, noishlab chiqarish soha tarmoqlarida – 25 kishigacha, chakana savdoda – 15 kishigacha ishlovchidan iborat bo'lgan. Bu esa, asosan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki pallasida hali yirik davlat korxonalari salmog'i yuqori bo'lib, davlat tomonidan mazkur korxonalar bilan teng iqtisodiy sharoitlarni ta'minlash, turli usul va vositalar orqali qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ko'pligi orqali izohlanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini shakllantirish, raqobatni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'paytirishn orqali iste'mol bozorini to'ldirish maqsadlarida kichik korxonalar faol rivojlanishi uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan bu me'yoriy hujjat haqiqatdan ham mazkur jarayonga berilgan dastlabki turtki bo'ldi. Buning natijasida mamlakatimizdagi kichik korxonalar jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi.

1992-1995 yillar davomida kichik korxonalar soni 13,1 mingtadan 43,2 mingtagacha, ya'ni 3,3 baravar o'sgan.  Kichik korxonalarda ishlovchilar soni esa 184,5 ming kishidan 422,8 ming kishiga qadar, ya'ni 2,3 baravar ko'paygan. Bu davr oralig'ida faoliyat ko'rsatib kelgan kooperativchilik harakati sekin-asta tugab, kichik korxonalarda aylanishi ta'sirida bitta kichik korxonaga to'g'ri keluvchi ishlovchilarning o'rtacha soni ham qisqarib bordi.

Yuqorida ta'kidlangandek, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishi takomillashib borishiga zamin yaratib, tegishli ravishda, kichik biznes sohasini belgilashni yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Jumladan, amalga oshirilgan kichik xususiylashtirish natijasida savdo, xizmat ko'rsatish sohasi, mahalliy, engil, oziq-ovqat sanoati, avtomobil transporti, qurilish va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalaridagi deyarli 54 mingta kichik va o'rta korxonalar xususiy mulkka o'tkazildi. 1994 yilda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturida belgilangan 5127 ta ob'ektni xususiylashtirish bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda 4617 ta korxonaning mulkchilik shakllari o'zgartirildi. Ushbu jarayonlar respublikamiz iqtisodiyotidagi yirik davlat korxonalari, ayniqsa, monpol mavqega ega xo'jalik sub'ektlari salmog'i keskin qisqarishiga va, ayni

paytda, yirik korxonalar va kichik biznes sub'ektlari o'rtasidagi nisbat o'zgarishiga olib keldi. Shu biln birga, kichik biznes sub'ektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirish, qo'llab-quvvatlashning manzilli yo'naltirilganligini kuchaytirish zarurati mazkur soha miqdoriy chegaralarini qayta ko'rib chiqishni taqozo eta boshladi. Shunga ko'ra, 1995 yil 21 dekabrida qabul qilingan “Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida”gi qonunda kichik korxonalarning yangi miqdoriy chegaralari belgilab berildi. 2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, qonunga binoan kichik korxonalarning miqdoriy chegarasi (xodimlar soni) tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlaridagi 2 baravardan fan va iilmiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarida 10 baravargacha qisqargan. Bu esa, o'z navbatida, boshqa ko'lamdagi tadbirkorlik shakllari (yirik va o'rta korxonalar)ning chegarasida o'zgarishlar ro'y berishiga olib keldi.

Shuningdek, bu qonunda kichik biznesni davlat tomonidan rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari ham belgilab berildi:

- kichik tadbirkorlikning me'yoriy-huquqiy negizini takomillashtirish;
- infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish;
- kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu yo'nalishlardagi chora-tadbirlar izchil ravishda amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlarining rivojlanishi yanada jadallashdi.

Xususan, bu davrda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar soni 9,4 mng birlikka (122,2%) ko'paydi. 1998 yil o'rtalaridan boshlab kichik korxonalar miqdoriy chegaralari qisqarishi natijasida ishlovchilarning ro'yxatdagi o'rtacha soni va, tegishli ravishda, bitta korxonaga to'g'ri keluvchi xodimlar o'rtacha soni kamaydi.

O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlari chegaralarini aniqlash navbatdagi bosqichining asosiy xususiyati shundaki, unda kichik va o'rta biznes sub'ektlari tarkibidagi bir qator tadbirkorlik tuzilmalari ajratib olindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoniga binoan kichik va o'rta tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar va o'rta korxonalar tarkib topishi belgilab berildi.

Bu jarayonda yana bir xususiyatli jihat ya'ni, kichik biznes sub'ektining ishlovchilar soniga ko'ra o'lchamlari asosan qisqarish tomonga borishi yaqqol namoyon bo'ldi. Masalan, kichik korxonalardagi xodimlarning o'rtacha yillik soni qurilishda 2,5, sanoat, ulgurji savdo, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarida 1,25 baravar qisqarib, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish, noishlab chiqarish sohalarining boshqa tarmoqlari chegarasi o'zgarmay qoldi. Aksincha, chakana savdo yo'nalishidagi kichik korxonalarda xodimlar soni 2 baravar o'sdi.

Farmon, shuningdek, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, mazkur sohaga kredit resurslari va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni ochib berdi. Belgilangan va izchil ravishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekistonda kichik biznes jadal sur'atlarda rivojlandi.

Kichik va o'rta biznes sub'ektlari miqdoriy chegaralari yanada takomillashtirilishi hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlar kuchaytirilishi natijasida ushbu davrda faoli Kichik tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, ishlab chiqarish sohasida aholi bandligini to'laroq ta'minlash uchun qulay sharoit yaratish maqsadida 2003 yil 30 avgustda O'zbekiston Respublikasining Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlari chegaralarini aniqlash borasida navbatdagi bosqichni boshlab berdi. Unga mazkur bosqichning xususiyatli tomoni – mikrofirma va kichik korxonalarda band bo'lgan xodimlar o'rtacha yillik soni tarmoqlar bo'yicha yanada aniq belgilab berildi.

Farmonda belgilab berilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida 2003 yil 11 oktyabrda O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 439-qarori qabul qilinib, unda kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikasiyasi tasdiqlandi.

Qisqasi, mazkur farmon mikrofirma va kichik korxonalar miqdoriy chegaralari sezilarli ravishda kengayishiga olib keldi (4-jadval). Jumladan, farmon qabul qilingunga qadar amal qilib kelgan miqdoriy chegaralarga nisbatan xodimlarning o'rtacha yillik soni:

sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish, noishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlaridagi mikrofirmalarda 2 baravar oshgan;
ulgurji savdo, chakana savdo va umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi mikrofirmalarda o'zgarmay qolgan;
engil va oziq-ovqat, metallga ishlov berish va asbobsozlik yog'ochini qayta ishlash mebel, qurilish materiallari sanoati, sanoat ishlab chiqarishning boshqa sohalarida, shuningdek, qishloq xo'jaligi, qurilish, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish, transport va aloqa xizmat ko'rsatish sohalari, chakana savdo tarmoqlaridagi kichik korxonalarda 2.5 baravar;
mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-enegetika, kimyo sanoati va ulgurji savdo tarmoqlaridagi kichik korxonalarda 1,25 baravar oshgan.
Kichik korxonalar miqdoriy chegaralarining amal qilib kelgan o'rta korxonalar miqdoriy chegarasiga qadar kengayishi mamlakatimizda “O'rta biznes” tushunchasining ilmiy muomaladan chiqarilishiga olib keladi.

## 3.2. Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili.

2004 yil 1 yanvarda kichik biznes su'ektlari miqdoriy chegaralarining davlat tomonidan oqilona va samarali belgilanishi mazkur soha biznes – muhiti yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, asosiy faoliyat ko'rsatkichlari yanada salmoqli bo'lishini ta'minladi.

Mamlakatimizda kichik biznesning miqdoriy chegaralari mazkur sohani jadal rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyat va rag'batlar yaratish nuqtai nazardan muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bunda tadbirkorlarining iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, ularning faoliyatini yanada kengaytirishga yo'naltirilgan mexanizmlarni qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda

3- jadval

Qashqadaryo viloyatida kichik va yakka tadbirkorlik sub'ektlarining yalpi xududiy maxsulotdagi ulushi (foizda)

| T\P | Ko'rsatkichlar | 2007y. | 2008y. | 2009y | 2010 y | 2011 y | 2012 y | 2013 y |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Tadbirkorlik sub'ektlari ulushi | 39,5 | 47,5 | 50 | 52.6 | 55.0 | 56,2 | 55,4 |
| 3 | Kichik tadbirkorlik va mikrofirmalar1 | 24,2 | 28,9 | 29 | 33.4 | 34.2 | 35,6 | 36,3 |
| 4 | Yakka tadbirkorlik sub'ektlari | 7,1 | 9,5 | 10.9 | 8.1 | 10.2 | 10,3 | 11,3 |
| 5 | Dehqon xo'jaliklari | 8,2 | 9,3 | 10.1 | 11.1 | 10.6 | 11,3 | 13 |

1Izoh: fermer xo'jaliklari bilan birga

Ko'rinib turibdiki, oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha narxlar orlig'ida etarli darajada farqlar bo'lib, ular mahsulot sifati bilan bevosita bog'liq.
Shu boisdan ham O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng tadbirkorlik ham rivojlanib bormoqda. Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik sub'ektlari soni 2013 yilda 2009 yilga nisbatan 44 foizga kamaygan bo'lsada, kichik tadbirkorlikda band bulgan kishilar soni xamda yangi yaratilayotgan ish o'rinlari oshib bormoqda. Shuningdek, yalpi xududiy maxsulotdagi ulushi 39,5 foizdan 55,4 foizga oshgan. Xamda sohalar buyicha tadbirkorlik sub'ektlari ulushi ortib bormoqda.
Bunga sabab qishloq xo'jaligi shirkat xo'jaliklarining tugatilishi asosida ko'plab fermer va huquqiy shaxs maqomidagi dehqon xo'jaliklarining tashkil etilishidir. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi rolining ortib borayotganligiga qaramasdan ularning ulushi ancha pastdir. Bunga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik korxonalarning qishloq joylarda tashkil etilishi jarayonlarining ancha sust amalga oshirilayotganligi sabab bo'lmokda.
Olib borilgan kuzatishlar natijasida shu narsa qayd qilindiki, ayrim mahsulot turlari bo'yicha tayanch narx nuqtalari bilan talab egriligi ko'rilganda narx darajasi har doim ham xaridorlarning hammasi uchun maqbul bo'lmas ekan va uning natijasini 5-rasmdan bilsa bo'ladi.

Nafaqat yil, kvartal, oy davomida, balki bir kunda bir-necha marta o'zgarishi va ayrim hollarda o'zining tannarxini oqlamasligi ham mumkin. Bu odatda tez buzuluvchan, sifatini tez yo'qotadigan tovarlarga nisbatan sodir bo'ladi. Bozorda narx-navoni o'zgarib borishi, hozirgi iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish jarayonida doim mavjud bo'ladi va u har doim o'sish mayliga ega. Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichk biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish sifatini raqobatbardoshlik talablaridan kelib chiqqan holda yo'lga qo'yilishi savdo jarayonida shakllanadigan narx-navoga ham bog'liq bo'lib, undan o'zgarishlar erkin iqtisodiyot sharoitida raqobatchilik muhitini jonlanishiga olib keldi.
1995 yildan boshlab, iste'mol mahsulotlariga narx-navoni ko'tarilib borishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, o'tish iqtisodiyotida sodir bo'ladigan inflyasiya jarayonlarini ob'ektiv mavjudligidir. Shuni hisobga olib, O'zbekistonda keyingi yillarda bir-necha marta aholini ish xaqlari oshirildi va ularning pul daromadlarida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Lekin shunga qaramasdan,

qishloq aholisining ma'lum bir qismi, xususan, shahar aholisi ham o'zlarining moddiy ehtiyojlarini asosan savdo shaxobchalari orqali qondirish uchun harakat qilishi narx-navoni yuqori bo'lishini taqozo etmoqda.

4-jadval

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlikka ajratilgan kredit mablag'lari

| Yillar | Jami ajratilgan kreditlar | Sanoat | Qishloq xo'jaligi | Savdo | Qurilish va maishiy xizmat ko'rsatish | Boshqa tarmoq-lar | Qisqa muddatli | Uzoq muddatli |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2013 | 114699 | 31314 | 38999 | 19128 | 19154 | 5504 | 38883 | 75816 |
| 2012 | 75800 | 20400 | 25500 | 15300 | 7900 | 3300 | 26200 | 49600 |
| 2011 | 43900 | 10600 | 16800 | 8900 | 4652 | 2900 | 15500 | 28400 |
| O'zgarish,% | 261,3 | 295,4 | 232,1 | 214,9 | 411,7 | 189,8 | 250,9 | 267,0 |

2010-2012 yillarda hosildorligi past erlarda paxta etishtirayotgan fermer xo'jaliklarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga davlat byudjetidan mablag' ajratish yo'lga qo'yildi. Meliorativ holati og'ir erlarda paxta etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 2010 yilda 10.6 mlrd. so'm, 2010 yilda esa 38.9 mlrd. so'mlik moliyaviy ko'mak uchun mablag' ajratilgan. Ushbu mablag'lar fermer xo'jaliklarining xizmat ko'rsatuvchi va ta'minotchi korxona hamda tashkilotlar oldidagi kreditorlik qarzlarini qisqartirishga salmog'li manba bo'ldi.

YEr islohotini rivojlantirish maqsadida o'zbekiston Respublikasining «YEr Kodeksi»ga Oliy majlisning 2004 yilning 28-29 avgustida bo'lib o'tgan sessiyasida talaygina o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, qishloq xo'jalik kooperativlariga (shirkatlariga) hamda boshqa korxona tashkilotlariga qishloq xo'jalik ishlab chiqarish maqsadida erlardan to'liq va samarali foydalanish uchun ijaraga yoki doimiy foydalanishga erlarni qo'shimcha imkoniyati berilgan. Qishloq xo'jalik erlarini qishloq xo'jalik shirkatlariga ma'lum muddatga ijaraga berish boshqa tashkilotlarga doimiy foydalanishga berish huquqiga tuman hohoshi yoki viloyat hokimi ega. Bunday holatni shakllantirilishi bizningcha, er islohotini soddalashtirishga emas, balki murakkablashtirishga, noaniqlikka olib kelishi mumkin. Chunki endilikda shirkat xo'jaliklarining rahbarlari tuman hokimidan tashqari yana viloyat hokimining ham roziligini olishi zarur. Bu vaqt hamda mablag' sarfini oshishiga olib keladi. Shuning bilan birgalikda tuman hokimlarining rolini ham pasayishiga olib keladi. Bunday holni oldini olish uchun

avvalgi tartibni saqlagan holda intizomiy javobgarlikni hamda ma'suliyatni kuchaytirish lozim.

**5-jadval**

Qarshi tumani “Shahzod yahyo obod” fermer xo’jaligi er maydoni tarkibi

| | YEr maydoni tarkibi | Ulchov birligi | Yillar | | | 2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 2010 | 2011 | 2012 | |
| 1 | Umumiy er maydoni | ga | 106,2 | 106,2 | 106,2 | 100,0 |
| 2 | Tutzorlar | ga | 3,6 | 3,6 | 3,6 | 100,0 |
| 3 | Sug'orish shoxobchalari va yo'llar | ga | 1,9 | 1,9 | 1,9 | 100,0 |
| 4 | Imoratlar | ga | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 100,0 |
| 5 | Boshqa erlar | ga | 0,3 | 0,3 | 0,3 | 100,0 |
| 6 | Ekin maydoni | ga | 100,3 | 100,3 | 100,3 | 100,0 |

2008 yilda fermer xo'jaliklarining er uchastkalarini maqbullashtirish jarayoni amalga oshirilib, ularni iqtisodiy barqaror faoliyat ko'rsatishiga zamin yaratildi. 2008 yil 6 oktyabrda o'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3077-sonli “Fermer xo'jaliklariga tasarrufidagi er uchastkalarini maqbullashtirish chora-tadbirlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida maxsus komissiyani tashkil qilish to'g'risida”gi Farmoyishi qabul qilindi. Fermer xo'jaliklari er uchastkalarini maqbullashtirish jarayoni bilan mamlakatimizda fermerlik harakatini yanada rivojlantirishning to'rtinchi bosqichi boshlandi. Qo'yilgan maqsad eng avvalo:· mahsulot etishtirish miqdorini ko'paytirish evaziga yuqori daromadga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari sonini ko'paytirish;· er va suvdan samarali foydalanishni ta'minlash; agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida sifatli bajarilishiga erishish;tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish uchun etarli mulkka ega bo'lishni ta'minlash;eng avvalo o'z daromadi (yoki bank kreditlari) hisobidan texnika va boshqa vositalarni xarid qilinishiga erishish;qishloq xo'jaligi tarmog'i bilan birgalikda hududlarda kasanachilik va boshqa sohalarni rivojlantirish asosida yangi doimiy ishchi o'rinlarini tashkil qilishdan iborat edi.

Qarshii tumani "Shahzod yahyo obod " fermer xo'jaligining umumiy er maydoni 2008 yilgacha 80,3 gektarni tashkil qilgan. 2008 yil 6 oktyabrda o'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3077-sonli “Fermer xo'jaliklariga tasarrufidagi er uchastkalarini maqbullashtirish chora-tadbirlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida maxsus komissiyani tashkil qilish to'g'risida”gi

Farmoyishi qabul qilinishi munosabati bilan fermer xo'jaligining umumiy er maydoni 106,3 gektarga etdi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda er-suv resurslarining ahamiyati beqiyos. Chunki ular yordamida mamlakatimiz ichki yalpi mahsulotining to'rtdan uch qismi, xalqimiz iste'mol qilayotgan mahsulotlarning 95 foizi etishtirilmoqda. Shunday ekan, ulardan kelajakda yanada to'liqroq, samaraliroq foydalanish dolzarb muammo hisoblanadi. Uni hal etish maqsadida respublika hukumati tomonidan siyosiy, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, er, suv, mulk to'g'risidagi qonunlar, kodekslar qabul qilindi. Ularda respublikamizda erlarga, suvlarga egalik qilish, ulardan maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanish borasidagi munosabatlar tizimi va ularni amalga oshirish tartibi ko'rsatilgan. YEr-suv resurslariga egalik qilishning huquqiy asosi o'zbekiston Konstitusiyasining 55-moddasida «YEr...suv...umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir»1 deb alohida ta'kidlangan.

**6-jadval**

Qarshi tumani “Shahzod yahyo obod” fermer xo’jaligi ekin maydoni tarkibi

| | YEr maydoni tarkibi | Ulchov birligi | Yillar | | | 2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 2010 | 2011 | 2012 | |
| 1 | Ekin maydoni | ga | 100,3 | 100,3 | 100,3 | 100 |
| 2 | Paxta | ga | 62,3 | 66,0 | 68,3 | 109,6 |
| 3 | G'alla | ga | 38 | 34,3 | 32,0 | 84,2 |

Fermer xo'jaligida ekin maydoni 2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarmagan. Paxta ekish uchun 2013 yilda 68,3 gektar er ajratilgan bo'lib, 2011 yilga nisbatan 6,6 foizga o'sgan. G'alla maydoni 15,8 foizga kamaygan.

YEr, suv qishloq xo'jaligining eng asosiy ishlab chiqarish vositalari ekan, ulardan qanday foydalanilganini bilish zarur. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

**a) Umumiy er fondidan foydalanish koeffisienti (foizi).** Uning darajasini aniqlash uchun qishloq xo'jaligida haqiqatda foydalanilgan er maydonini foydalanish mumkin bo'lgan er maydoniga taqsimlash lozim. Buni quyidagi tenglik yordamida aniqlash mumkin:

$$\text{ЕФК} = \frac{\Phi E}{\Phi ME}; \text{ yoki } \frac{\Phi E}{\Phi ME} \times 100:$$

Bunda: ЕФК–umumiy er fondidan foydalanish koeffisienti, (foizi);

ФЕ–qishloq xo'jaligida foydalanilgan er maydoni, ga;

ФМЕ – foydalanilishi mumkin bo'lgan er maydoni, ga.

Bu ko'rsatkich koeffisientda yoki foizda aniqlanishi mumkin. Uni aniqlash natijasida erdan foydalanishning to'liqlik darajasi aniqlanadi. Uni haqiqiy darajasi, ya'ni koeffisienti 1 dan yoki 100 foizdan ortiq bo'lishi mumkin emas. Bu ko'rsatkichni aniqlash natijasida tarmoqda (xo'jalikda) qancha erdan foydalanilgan va qanchasidan foydalanilmaganligi bilinadi. Shundan so'ng bunday holning sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

## 3.3.Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini va mahsulot etishtirishni rejalashtirish

Dehqonchilik tarmoqlarini tashkil qilish, korxonaning perspektiv va yillik rejalarini xamda ishlab chiqarish bo'limi va zvenolarining xo'jalik hisobi topshiriqlarini ishlab chiqishda hal qiluvchi omil – qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini rejalashtirishdir. Ekinlar hosildorligini rejalashtirish eng murakkab va shu birga eng asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki hosildorlik ishlab chiqarishning hamma xususiyatlarini, ularning ekinga ta'sirini o'zida mujassamlashtiradi. Ishlab chiqarishning ayrim omillari ekinlar hosildorligiga bevosita ta'sir etsa va bu ta'sirni ma'lum darajada miqdor jihatdan xisoblash imkoni bo'lsada (masalan, meneral va organik o'g'itlar, suv ta'minoti, erning zaxini qochirish, yangi nav urug'lik, chuqur shudgor qilish va xokazolar), lekin boshqalari ekinlar hosildorligiga bilvosita ta'sir etganligi uchun ularning ta'sirini bevosita miqdor jihatdan hisobga olish ancha qiyin(mehnatni tashkil qilish, mehnatga haq to'lash ishlarni o'z vaqtida o'tkazish va hokazo).

**7-jadval**

Qarshi tumani “Shahzod yahyo obod” fermer xo’jaligi ekinlar hosildorligi

| | YEr maydoni tarkibi | Ulchov birligi | Yillar | | | 2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 2011 | 2012 | 2013 | |
| 1 | Paxta | Tonna\ga | 3,5 | 2,9 | 3,6 | 102,9 |
| 2 | G'alla | Tona\ga | 2,8 | 2,9 | 3,2 | 114,3 |

Qarshi tumani “Shahzod yahyo obod ” fermer xo'jaligida paxta hosildorligi 2013 yilda 36 sentnerni tashkil qilib, 2011 yilga nisbatan 2,9 foizga oshgan. G'allaning hosildorligi 2013 yilda 32 sentnerni tashkil qilib, 2011 yilga nisbatan 14,3 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Shuni nazarda tutish kerakki, ekin eri uchun qilingan mehnat unumdorligiga, ya'ni ekinning

hosildorlik darajasiga tabiiy sharoitlar, tabiiy omillar xam katta ta'sir ko'rsatadi. Qulay ob-havo sharoitidagiga qaraganda unumdorlikka yoki hosildorlikka erishishi imkonini beradi. Natijada ob-havo qulay kelgan yillarda noqulay kelgan yillardagi singari bir xil hajmda mehnat sarf qilinsada, lekin hosildorlik yuqori bo'ladi.Bu hol ekinlar hosildorligini rejalashtirishda bir yillik natija bilan cheklanib qolmay, balki kamida 5-6 yillik o'rtacha darajaga asoslanishni talab qiladi. Rejalashtiriladigan hosildorlik qancha uzoq muddatga hisoblanadigan bo'lsa, erishilgan o'rtacha hosildorlik darajasini shuncha uzoq muddatga asos qilib olish maqsadga muvofiqdir. Hosildorlikning erishilgan darajasini o'rganish va tahlil qilishda korxona joylashgan zonadagi davlat urug' sinash uchastkalari, tajriba stansiyalari va ilg'or xo'jaliklar hamda brigadalarning hosildorlikni oshirish tajribalari umumlashtirilishi kerak. Tahlil qilish orqali o'rtacha hosildorlik hamda o'rtacha yillik o'sish sur'atlari aniqlanadi. Qabul qilinganyoki erishilgan o'rtacha yillik o'sish sur'atiga ko'ra, ma'lum “Shahzod yahyo obod” fermer xo'jaligida bir  yilga hosildorlik darajasi rejalashtiriladi. o'rtacha hosildorlik darajasi quyidagi formulaga binoan aniqlanishi mumkin:

$$X = \frac{\sum_{n}^{i} XM}{\sum_{n}^{i} M};$$

Bunda: *X*- ekin hosildorligi;

*M*- ekin maydoni; *n*- yillar soni; *i* - ekin turi.

Ancha uzoq (besh, o'n va hokazo yillar) davrdagi rivojlanishning o'rtacha yillik o'sish sur'atini aniqlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1) Yillik o'sish sur'atlarining xossasi sifatida, ya'ni:

$$\overline{X}_c = \sqrt[n]{x_1 x_2 x_3 \ldots x_n}$$

2) Oxirgi davrdagi mutlaq miqdorning dastlabki (bazis) davrdagi mutlaq miqdorga bo'lgan nisbati hosilasi sifatida, ya'ni:

$$\overline{X}_c = \sqrt[n]{\frac{m_a}{m_1}}$$

Bu formulada: $\overline{X}_c$ - o'rtacha o'sish sur'ati;

$m_a$ - har yilgi mutlaq miqdor;

m1 - bazis miqdor;

*n* - yillar soni.

Almashtiriladigan o'rtacha hosildorlik darajasi erishilgan o'rtacha (besh yillik) hosildorlikning o'rtacha o'sish sur'atiga ko'paytirish orqali aniqlanishi mumkin.

Hosildorlikni unga ta'sir etuvchi eng asosiy omillar ta'sirini hisoblab chiqish orqali rejalashtirish mumkin. Bunda ta'siri aniqlanadigan omildan boshqalari bir xil – o'zgarmagan bo'lishi kerak. Ta'siri hisoblanadigan shunday omillarga mineral va organik o'g'itlarning qo'llanishi, yangi urug'lik navlari, suv ta'minoti va hokazolar kiradi. Ilmiy-tadqiqot institutlari ma'lumotlariga ko'ra, qo'shilgan hosilning yarmi mineral o'g'itlar hissasiga to'g'ri keladi. Paxtachilikda erning tabiiy unumdorligi gektar boshiga o'rtacha 12-14 s hosil olishini ta'minlaydi. Qolgan hosil, ya'ni qo'shimcha hosil erga qo'shimcha mehnat va mablag' sarflash natijasida, mehnat unumdorligi oshishi hisobiga etishtirilgan. Haqiqatda sarf qilingan sof miqdordagi o'g'itning bir birligiga etishtirilgan hosil bilib olingandan keyin uni rejalashtirilgan qo'shimcha o'g'it sarfiga ko'paytirish orqali qo'shimcha olinadigan hosil miqdori aniqlanadi:

Respublikamiz qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda er-suv resurslarining ahamiyati beqiyos. Chunki ular yordamida mamlakatimiz ichki yalpi mahsulotining to'rtdan uch qismi, xalqimiz iste'mol qilayotgan mahsulotlarning 95 foizi etishtirilmoqda. Shunday ekan, ulardan kelajakda yanada to'liqroq, samaraliroq foydalanish dolzarb muammo hisoblanadi. Uni hal etish maqsadida respublika hukumati tomonidan siyosiy, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, er, suv, mulk to'g'risidagi qonunlar, kodekslar qabul qilindi. Ularda respublikamizda erlarga, suvlarga egalik qilish, ulardan maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanish borasidagi munosabatlar tizimi va ularni amalga oshirish tartibi ko'rsatilgan. YEr-suv resurslariga egalik qilishning huquqiy asosi o'zbekiston Konstitusiyasining 55-moddasida «YEr…suv…umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir»1 deb alohida ta'kidlangan.

**8-jadval**

Qarshi tumani “Shahzod yahyo obod” fermer xo’jaligida yetishtirilgan yalpi xosil

| | YEr maydoni tarkibi | Ulchov birligi | Yillar | | | 2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 2010 | 2011 | 2012 | |
| 1 | Paxta | Tonna | 218 | 191 | 246 | 112,8 |
| 2 | G'alla | Tonna | 106 | 99 | 102 | 96,2 |

Fermer xo'jaligida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etshtirish xajmi uning hosildorligiga bog'liq oshib borada. Qarshi tumani “Shahzod yahyo obod”fermer xo'jaligida paxta hosildorligi 2013 yilda 246 tonnani tashkil etib, 2011 yilga nisbatan 12,8 foizga oshgan. G'alla etishtirish 2013 yilda 102 tonnani tashkil

etgan bo'lsa, 2011 yilga nisbatan 3,8 foizga kamaygan. Fermer xo'jaligida paxta er maydoning oshishi hisobiga unig yalpi hosili o'sgan. G'allachilikda esa ushbu ko'rsatkich er maydoning kamayishi natijasidir.

Qishloq xo'jaligining eng asosiy vazifasi respublika hududidagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarning xomashyoga, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirishdir. Shu bilan birgalikda, tarmoq tashqi bozor talabini qondirishda ham qatnashishi maqsadga muvofiqdir

Bu talablar qishloq xo'jaligi uchun davlatning paxta va g'allaga bo'lgan eng muhim buyurtmalarini bajarishga asoslanadi. Bu mahsulotlarga davlat buyurtmalarining miqdori ularni etishtirish bo'yicha rejalashtirilgan hajmga nisbatan 30 foiz darajasida belgilangan. Bu o'rinda eslatib o'tish kerakki, qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tarmoqda etshitirilgan mahsulotlarning, chunonchi, urug'lik, em-xashak, ozuqa kabilarning ma'lum bir qismi ichki talabni qondirishga sarflanadi. Aks holda tarmoqda takror ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi ta'minlanmaydi.

Qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarishining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlanishini ta'minlash uchun etishtirilgan mahsulotlarning bir qismi bu boradagi talablarini qondirish maqsadida ishchi-xizmatchilarga ish haqi o'rniga natura holida beriladi, ularning ovqatlanishlari uchun ajratiladi. Shuningdek, aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ularga ma'lum miqdordagi mahsulotlar tekinga beriladi.

Hozirgi davrda qishloq xo'jalik korxonalarida etishtirilayotgan mahsulotlar muayyan kanalllar bo'yicha taqsimlanmoqda va sotilmoqda.

**9-jadval**

Qarshi tumani “SHaҳzod yaҳyo obod” fermer xo’jaligida mahsulot tannarxi

| | YEr maydoni tarkibi | Ulchov birligi | Yillar | | | 2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 2011 | 2012 | 2013 | |
| 1 | Paxta | тонна\сўм | 457675 | 529893 | 701200 | 153,2 |
| 2 | Ғалла | тонна/сўм | 234975 | 235936 | 312400 | 133,0 |

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligi mahsulotlarning tannarxiga bog'liq.. Fermer xo'jaligida paxta va g'allaning boshqa ko'rsatkichlari singari oshib borgan. Ushbu ko'rsatkich xususiyatiga ko'ra o'sishni taqozo qilsa, ammo uni pasaytirish samaradorlikni

oshiradi. Fermer xo'jaligida paxtaning bir tonna tannarxi 2013 yilda 701200 so'mni tashkil qilib, 2011 yilga nisbatan 53,2 foizga oshgan. G'allaning bir sentner tannarxi 2013 yilda 312400 so'mni tashkil qilib, 2011 yilga nisbatan 33 foizga oshgan.

10-jadval

Qarshi tumani “Shahzod yahyo obod” fermer xo’jaligida bir tsentner maxsulot soish baxosi

| | YEr maydoni tarkibi | Ulchov birligi | Yillar | | | 2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 2011 | 2012 | 2013 | |
| 1 | Paxta | tonna\so'm | 762786,7 | 883154,7 | 938254,3 | 123,0 |
| 2 | G'alla | tonna\so'm | 293718,2 | 337051,6 | 485200,2 | 165,2 |

Fermer xo'jaligida asossan paxta va g'alla mahsulotlari sotiladi. Paxta ishlab chiqarish tannarxi oshib borishi bilan birga ularning sotib olish baholari ham oshib borgan. Chunki ularga sarflanayotgan xarajat elementlari narxi oshib borgan. Mahallliy bozorda va jahon bozorida ham narxlarining oshib borishi kuzatiladi. Qarshi tumani " Shahzod yahyo obod " fermerxo'jaligida paxtaning bir tonnasining narxi 2013 yilda 938254,3 so'mni tashkil qilib, 2011 yilga nisbatan 23,0 foizga ortgan. G'allaning bir tonnasini sotish bahosi 2013 yilda 485200,2 so'mni tashkil etib, 2011 yilga nisbatan 65,2 foizga oshganligini 2.7-jadvaldan ko'rish mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalari, avvalo, etishtirgan paxta, don mahsulotlarining davlat buyurtmasida ko'rsatilgan miqdorini «o'zpaxtasanoatsotish» uyushmasi hamda «o'zdonmahsulot» kompaniyasining joylardagi korxonalari bilan tuzilgan shartnomalar asosida sotadilar. Bu turdagi mahsulotlarning davlat buyurmalaridan ortiqcha qismi erkin savdoda shartnomalar asosida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarga sotiladi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bozor iqtisodi sharoitida korxonalarga etishtirgan mahsulotlarini erkin sotish imkoniyatlari to'liq borilishi zarur. Shuning uchun davlat buyurtmalari o'rniga iqtisodiy jihatdan rivojlangan demokratik davlatlardagidek mahsulotlarni erkin sotib olish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish lozim. Shu orqali davlatning iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosati amalga oshirilishi uchun to'liq imkoniyat yaratiladi. Bunda korxonalar o'z ishlab chiqarishini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish uchun zarur mahsulotlarni ichki talablarni qondiradigan

miqdorda ajratishlari lozim. Buning uchun ham ichki shartnomalar tuzish kerak. Ularda xo'jalik ichidagi munosabatlarni amalga oshirish tartibi to'liq ko'rsatilishi zarur.

11-jadval

| Paxtachilikda ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Ko'rsatkichlar | Ulchov birligi | Yillar | | | 2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish |
| | | 2011 | 2012 | 2013 | |
| Bir getar erdan olingan yalpi daromad | Ming so'm | 2669,75 | 2561,15 | 3377,72 | 126,5 |
| Bir getar erga saflangan xarajat | Ming so'm | 1601,86 | 1536,69 | 3208,32 | 200,3 |
| Bir getar erdan olingan foyda | Ming so'm | 1067,89 | 1024,46 | 169,40 | 15,9 |
| Rentabellik | % | 66,67 | 66,67 | 5,28 | 7,9 |
| Paxtachilikda mehnat sarfi | Kishi/kun | 7233,30 | 18000 | 19200 | 265,4 |
| Bir birlik mahsulot sarflangan mehnat sarfi | Kishi/kun | 15,00 | 15 | 15 | 100,0 |
| Bir kishi kun hisobiga etishtirilgan hosil | Sentner | 14,54 | 12,76 | 16,39 | 112,8 |

Shundan so'ng ular qolgan mahsulotlarini shartnomlaar asosida erkin bozorlarda, jumladan, birjalarda, ko'rgazmalar yordamida, auksionlar hamda chakana savdolar orqali sotishlari mumkin.

Erkin bozor sharoitida mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar hamma talablarga javob bera oladigan darajadagi shartnomalar asosida amalga oshirilishi taqozo etiladi.

Shartnomalar har ikki tomonning erkin kelishuvi asosida tuzilishi shart. Shartnomalarni tuzishdan oldin tomonlar bozorni (marketing masalalarini) mukammal o'rganishlari, xo'jalik rahbarlari, bosh mutaxassislar, menejerlar zarur vositalarni qaerdan, qachon, qanday baholarda, qancha va qanday usullarda olish mumkinligini, shuningdek, o'z mahsulotlarini foydasi bilan sotish yo'llarini, xo'jalik rahbarlari, shuningdek, amaliyotdagi qonun va qoidalarni ham mukammal bilishlari, ular asosida ish yuritishlari k

12-jadval

Qarshi tumani “Shahzod yahyo obod” fermer xo’jaligining asosiy iqtisodiy ko’rsatkichlari

| | Ko'rsatkichlar | Ulchov birligi | Yillar | | | 2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 2011 | 2012 | 2013 | |
| | Yalpi tovar maxsulot | Ming so'm | 197577,3 | 202562,3 | 280382,5 | 141,91 |
| | Yalpi tovar maxsulot tannarxi | Ming so'm | 124797,4 | 124890,1 | 204400,8 | 163,79 |
| | Foyda(zarar) | Ming so'm | 72779,9 | 77672,3 | 75981,7 | 104,40 |
| | Rentabellik | % | 58,32 | 62,19 | 37,17 | 0,64 |
| | Paxtachilikda | | | | | |
| | Yalpi tovar maxsulot | Ming so'm | 166325,6 | 169035,8 | 230698,0 | 138,70 |
| | Yalpi tovar maxsulot tannarxi | Ming so'm | 99796,0 | 101421,5 | 172411,1 | 172,76 |
| | Foyda(zarar) | Ming so'm | 66529,6 | 67614,3 | 58286,9 | 87,61 |
| | Rentabellik | % | 66,7 | 66,7 | 33,8 | 0,51 |
| | G'allachilikda | | | | | |
| | Yalpi tovar maxsulot | Ming so'm | 31251,6 | 33526,5 | 49684,5 | 158,98 |
| | Yalpi tovar maxsulot tannarxi | Ming so'm | 25001,3 | 23468,6 | 31989,8 | 127,95 |
| | Foyda(zarar) | Ming so'm | 6250,3 | 10058,0 | 17694,7 | 283,10 |
| | Rentabellik | % | 25,00 | 42,86 | 55,31 | 2,21 |

Qarshi tumani " Shahzod yahyo obod " fermer xo'jaligida yalpi tovar mahsulot 2011 yilda 197577,3ming so'mni tashkil qilib, 2013 yilda bu ko'rsatkich 280382,5ming so'mga o'sgan, 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 41 foizga oshgan. Jami mahsulotlarni etishtirish uchun xarajat 2011 yilda 124797,4ming so'mni tashkil qilib, 2013 yilda 204400,8 ming so'mni tashkil qilgan, 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 1,6 marta oshgan. Olingan foyda 2011 yilda 72779,9 ming so'mni tashkil qilib, 2013 yilda 75981,7ming so'mni tashkil qilgan , 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 4,4 foizga oshgan. Rentabellik darajasi 2011 yilda 58,3 ni tashkil qilib, 2013 yilda 37,1 ni tashkil qilgan. 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 0,64 punktni tashkil etgan.

Paxtachilikdadan olngan yalpi daromad 2011 yilda 166325,6 ming so'mni tashkil qilib, 2013 yilda 230698,0 ming so'm bo'lgan, 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 1.3 marta oshgan. Paxtachilikda qilingan xarajat 2011 yilda 99796,0 ming so'mni tashkil qilib, 2013 yilda 196134 ming so'mni tashkil qilgan, 2012 yilda 2010 yilga nisbatan 1.6 marta oshgan. Olingan foyda 2010 yilda 172411,1 ming so'mni tashkil qilgan. Paxtachilikdan olingan foyda 2013 yilda 58286,9 ming

so'mni tashkil etib, 2013 yilda 2010 yilga nisbatan 13 foizga kamaygan Rentabellik darajasi 201 yilda 33,8 ni tashkil etib, 2011 yilga nisbatan 0,51 punktni tashkil kilgan.

G'alllachilikda ham ishlab chiqarish sur'atining o'sishi kuzatiladi. 2013 yilda g'allachilikdan olingan daromad 49684,5 ming so'mni tashkil qilib, 2011 yilga nisbatan 58,9 foizga oshgan . Qilingan xarajat 2013 yilda 31989,8 ming so'mni tashkil etib, 2011 yilga nisbatan 27.9 foizga oshgan. G'allachilikdan olingan foyda 17694,7 ming so'mni tashkil etib, 2011yilga nisbatan 2,8 marta oshgan. Rentabellik darajasi 2013 yilda 55,1 ni tashkil etib, 2011 yilga nisbatan 2,2 punktga oshgan.

### 3.4 Qishloq xo'jaligida kichik korxonalarning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.

Respublika agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy o'zaro bog'lanishi, ya'ni integrasiyalashuvi natijasida mehnat taqsimoti amalga oshirilmoqda. Bu hol agrosanoat majmuasi ixtiyoridagi barcha resurslardan, shu jumladan, cheklanganlaridan ham samarali foydalanilishini ta'minlashga, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishga, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizasiyalashtirishga, avtomatlashtirishga, elektrlashtirishga, kompyuterlashtirishga hamda tarmoqlarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan. Ular talab darajasida amalga oshirilishi natijasida xaridorgir, raqobatbardosh oziq-ovqat hamda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi ortadi. Ular iste'molchilarga sifatli va qulay usullar bilan etkazib borilishi natijasida aholining shu mahsulotlar bilan ta'minlanishi darajasi ortib, majmua tarkibidagi tarmoqlarning foydalari ko'payadi. Natijada agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorligi yuksaladi.

Agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorlik darajasini qator ko'rsatkichlar yordamida aniqlash mumkin.

Yalpi mahsulot qiymatini hisoblashda mahsulotlarning bir necha marta hisobga olinishini bartaraf etish maqsadida, agrosanoat majmuasining barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymat summasini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki qo'shilgan qiymat – bu, korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan etkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xomashyo va materiallar qiymati (amortizasiya summasidan tashqari) chiqarib tashlanganidan so'ng qolgan qismining bozor baholaridagi qiymatidir. Majmua yalpi mahsulotining haqiqiy baholardagi qiymatini respublika yalpi milliy mahsuloti tarkibidagi salmog'ini aniqlab, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi va o'zgarishini ham aniqlash mumkin. Agarda agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining respublika yalpi milliy mahsulotidagi salmog'i o'sayotgan bo'lsa, yalpi milliy

mahsulot oshgan holda majmuaning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni yuksalayotganligidan dalolat beradi. Agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining haqiqiy baholarda hisoblangan qiymatidan shu yildagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni, jumladan, ishlab chiqarishning rentabellik darajasini, mehnat unumdorligini, fondlar qaytimini aniqlashda foydalanish mumkin. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyotining qator yillardagi o'zgarishini aniqlash uchun uning yalpi mahsuloti qiymatini o'zgarmas, ya'ni qiyosiy baholarda aniqlash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda qiyosiy baho sifatida 1996 yildagi o'rtacha baholar olinmoqda. Shu tartibda yalpi mahsulotning qiymati aniqlanib, uni avvalgi yillardagi raqamlar bilan taqqoslash orqali agrosanoat majmuasi yalpi mahsuloti qiymatining o'zgarishini aniqlash mumkin. Shunday qilib, yalpi mahsulot qiymatiga va boshqa ko'rsatkichlar darajasiga baholar o'sishining ta'siri bartaraf etiladi. Agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining 1996 yil baholaridagi qiymati majmuaning real yalpi mahsuloti ekanligidan dalolat beradi. Shu real yalpi mahsulot qiymati ko'rsatkichidan foydalangan holda agrosanoat majmuasida qator yillardagi mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, sig'imi kabi ko'rsatkichlar darajasini aniqlab, ularning o'zgarishini ham bilib olish, bu ko'rsatkichlarni majmua tarkibidagi tarmoqlar miqyosida aniqlab, ularning o'zgarishini tahlil qilish mumkin.

Agrosanoat majmuasining tarmoqlari bo'yicha mamlakat eksportidagi, ya'ni valyuta tushumidagi salohiyati, ya'ni ulushi. Uni bilish uchun agrosanoat majmuasi tarmoqlaridagi korxonalarning eksport qilgan mahsulotlariga, xizmatlariga olingan valyuta shaklidagi haq tushumlarining bir yillik yig'indisini aniqlash zarur. Uni yagona valyuta birligida ko'rsatish uchun AQSh dollariga davlat kursiga binoan aniqlash lozim, kelajakda o'z mavqesini oshirib borayotgan evroda ham hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Demak, mamlakat eksport salohiyatini belgilovchi muhim ko'rsatkich bo'yicha qishloq xo'jaligi bilan «O'zpaxtasanoat» uyushmasining salmog'i katta. Bu yaxshi, lekin kelajakda paxta tolasini chetga sotishning maqsadga muvofiq miqdorini saqlagan holda uni qayta ishlab, iste'mol uchun tayyor hisoblangan xalq iste'moli tovarlari eksportga chiqarilishini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga qishloq xo'jaligida sabzavot, poliz hamda bog'dorchilik, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash sohalarini rivojlantirib, olingan sifatli, ekologik jihatdan toza hisoblangan tayyor mahsulotlarni ham chet ellarga sotishni rivojlantirishga alohida e'tibor berish vaqti keldi.

Bu muammoni hal etish jarayonida respublikada qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi, yangi ish joylarining tashkil etilishi, savdo sohalarining taraqqiyoti ta'minlanadi. Natijada nafaqat iqtisodiy, balki aholini ish bilan ta'minlashdek ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan muammo ham ma'lum darajada hal etiladi.

Aholining oziq - ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan ta'minlanganlik darajasi. Bu ko'rsatkichning mutlaq darajasini aniqlash uchun agrosanoat majmuasida ishlab chiqarilib, iste'molchilarga sotilgan

mahsulotlar (turlari bo'yicha) miqdorini respublika aholsining umumiy soniga taqsimlash lozim. Shunda jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori aniqlanadi. Agarda uning miqdori yil sayin ortib, tibbiyot me'yorlariga yaqinlashsa, u holda bu aholining yashash sharoiti yuksalayotganligidan, xalqning farovon hayot kechirishi ta'minlanayotganidan dalolatdir.

Agrosanoat majmuasi, tarmoqlari va korxonalarida foydalanilayotgan, sarflanayotgan ishlab chiqarish fondlarining, qilinayotgan xarajatlarning samaradorligi. Bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun agrosanoat majmuasining yalpi mahsulotini, milliy mahsulotini hamda sof foyda summasini ishlab chiqarish fondlariga, xarajatlar summasiga taqsimlash zarur. Shunda 1 so'mlik ishlab chiqarish fondlari, xarajatlari evaziga olingan yalpi mahsulot, milliy mahsulot hamda sof foyda summasi aniqlanadi. Agarda bu ko'rsatkichlarning mutlaq (absolyut) miqdori oshib borsa, u holda bu fondlarning, xarajatlarning iqtisodiy samradorligi oshayotganligidan dalolat beradi.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining, korxonalarining rentabellik darajasi. Uni aniqlash uchun tarmoqlarning, korxonalarning sof foydasini jami xarajatlar summasiga taqsimlab, natijani 100 ga ko'paytirish lozim. Chunki bu ko'rsatkich foizda aniqlanadi. Shu bilan birgalikda agrosanoat majmuasining ijtimoiy samaradorligini aniqlashda bir qancha qo'shimcha ko'rsatkichlardan, jumladan, tarmoqlar bo'yicha bir kishining o'rtacha oyligi, kadrlarning bilimlilik salmog'i, aholi jon boshiga ko'rsatilayotgan xizmatlar miqdori va boshqalardan ham foydalanish mumkin.

## Nazariy dars o'tish metodikasi

### 4.1.Kasb-hunar kollejlarida nazariy ta'lim berishning asoslari

Dars jarayonini boshqarish va tashkillashtirishda o'qituvchining bilimi, tajribasi, ko'nikmasi, ilmiy-pedagog salohiyati, mahorati, qobiliyati asosiy omil hisoblanadi. Shunga ko'ra, jumladan ma'ruzani oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib qo'llaniladigan o'quv qo'llanmalar va vositalar tayyorlanadi. O'quv xonasi dars uchun tayyorlab qo'yiladi.

O'qituvchi ma'ruza qila turib quyidagilarga e'tibor qaratadi:

- talabalarni savol-javobga undash orqali guruhda muhokama muhitini yaratadi, ijobiy javobni shakllantiradi;
- vaqtincha erkin fikr almashishga ruxsat beradi;
- kundalik hayotdan ibratli misollar keltiradi;
- talabalarni savol berishga undaydi;
- ilgari o'rganilgan hodisa va vaziyatlarni yangilari bilan taqqoslashni

amalga oshiradi;

- fan doirasida turli ma'lumotlarni jonli, qiziqarli bayon qiladi.

Dars jarayonida talabaning tanqidiy (tahliliy) fikrini shakllantirishda uchta bosqichdan foydalaniladi:

1. Yo'llanma berish.
2. Ahamiyatini oshirish.
3. Fikrlash.

Talabalarning tanqidiy (tahliliy) fikrini rivojlantirishda interaktiv uslublarning muhim o'rni bor, bular hamkorlik sub'ektlarni ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga, kashf etishga ko'mak beruvchi nazariy aqliy mulohazalarda ifodalanadi.

Darsni boshlash jarayonida talabalarda ko'tarinki kayfiyat, yuksak ehtiros, ijodiy ruhlanish kuzatilsa dars jarayonining samaradorligi yuqori bo'ladi. Bunda o'qituvchining faoliyati aniq reja asosida, oldindan tayyorlangan holda bo'lishi zarur. Demak, o'qituvchi tomonidan dars davlat ta'lim standartlari asosida olib boriladi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni echimini topib ularni amalda keng qo'llash oliy ta'lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosida masofadan o'qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

Ta'lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo'ladi. Bu o'qituvchining mahoratinigina emas, balki tinglovchining istak-hohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta'limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo'lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo'lsa, ta'lim umumiylikka egadir.Ta'lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon. Bilim ob'ektiv borlikdagi voqea-hodisalarning in'ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo'ladigan tushunchalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo'ladi. Ta'limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi

turlicha bo'lishi mumkin. Lekin guruhdagi talablarga beriladigan ta'lim bir xildir. O'qituvchi bilim emas, balki ta'lim beradi. Talaba esa ana shu ta'lim jarayonida bilimga ega bo'ladi. Buning uchun u mustaqil o'qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo'ladi, eshitganlari va o'qitganlarini sintez qiladi. Natijada bilimga ega bo'ladi

| | |
|---|---|
| | **“Qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish yo'llari”** |

**4.2.Ma'ruza mashg`ulotining ta'lim texnologiyasi**

| **Vaqti: 2 soat** | **Talabalar soni: 45** |
|---|---|
| **Mashg'ulot shakli** | **Ma'ruza** |
| *Ma'ruza rejasi* | - Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanishi<br>- Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivoj-lanish ko'rsatkichlari tahlili<br>- Qishloq xo'jalik ekinlari hosildor-ligini va mahsulot etishtirishni rejalashtirish<br>- Qishloq xo'jaligida kichik korxo-nalarning ijtimoiy iqtisodiy samara-dorligini oshirish yo'llari. |
| Mashg'ulotning maqsadi: | Qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish yo'llari to'g'risida talabalarning bilim-larini shakllantirish |
| *Pedagogik vazifalar* | O'quv faoliyati natijalari. |
| – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari haqida aytib berish;<br>– Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichlarini taxlil qilinadi;<br>– Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini va mahsulot etishtirishni rejalashtirish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi;<br>– Qishloq xo'jaligida kichik korxo-nalarning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari haqida tushuncha berish. | – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari haqida aytib beradilar;<br>– Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qiladilar;<br>– Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini va mahsulot etishtirishni rejalashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qiladilar;<br>– Qishloq xo'jaligida kichik korxo-nalarning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari haqida tushuncha oladilar; |
| *O'qitish usullari va texnika* | Ma'ruza, Slaydli taqdimot qilish usuli, aqliy hujum, bahs-munozara, namoyish etish |
| *O'qitish vositalari* | O'quv qo'llanma, ma'ruza materiallari, kompyuter texnikasi, slaydlar, proektor, multimedia tarmoqlari,o'quv uslubiy majmua |
| *O'qitish shakllari* | Jamoa bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash. |
| *O'qitish shart-sharoitlari* | Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya. |
| *Monitoring* | Nazorat savollari, slaydlar. Kuzatish, tezkor-so'rov. |

## Slaydli taqdimotni ishlab chiqish pedagogik texnologiyasining texnologik chizmasi

1. Taqdimot ko'rinishini tanlash

Slaydlar soni o'quv materialning mazmunini ochib berish uchun etarli bo'lishi kerak. Slayd dizayni taqdimot mavzusi bilan ham ohang bo'lishi kerak. Slaydlarda keltirilgan barcha axborot tuzilmaga keltirilgan bo'lishi kerak.

2. Taqdimotni umumiy rasmiylashtirishini tanlash

*Matn quydagicha bo'lishi zarur: yuqori axborotli; bog'lovchili; aniq va qisqa; oddiy sintaktikli, tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur.*

*Rasmlar aniq va etarlicha kattaroq bo'lishi zarur.*

*Jadvallar ajratuvchi ma'lumotlarni, xuddi shunday aniq, ularning tagiga yirik yozuvlardan, jadvallar nomlanishi zarur.*

*Chizmalar bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.*

3. Slaydlarni mazmunli tomonlarini tanlash

*Slaydlarni mazmunli ko'rsatkichlari:*
- *birinchi slayd: taqdimot mavzusi, muallif familiyasi, bajaruvchi, yaratilgan kunidan iborat;*
- *oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;*
- *boshqa slaydlar taqdimot mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.*

4.Slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animasiyalarni yaratish (o'qtituvchi-texnolog xohishiga ko'ra)

*Ovoz tiniq bo'lishi kerak. taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchini ovozini eshitib bo'lmaydi- eng yaxshisi ma'ruzachini jonli ovozi hisoblanadi.*

*Video-tasmalar taqdimot oynasini uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin.*

*Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida yoki sichqonchani turtishi orqali namoyish ettiriladi (taqdimot ko'rishiga bog'liq) .*

### 4.3. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

| *Ish bosqichlari va vaqti* | *Faoliyat mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *o'qituvchi* | *o'quvchi* |
| **1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.)** | Tashkiliy boshlanish.<br>1.1. O'quvchilar bilan salomlashadi.<br>1.2.O'quvchilarni va auditoriyani mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi.<br>1.3. Yo'qlama qiladi.<br>O'quv faniga olib kirish.<br>1.4. O'quv fani bilan tanishtiradi va undagi mavzularning o'zaro aloqasini yoritadi, ularga qisqa tavsif beradi,<br>1.5. Fan miqyosida bajariladigan uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini tushuntiradi.<br>1.6. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni (1-ilova) mustaqil ishlash uchun adabiyotlar bilan tanishtiradi.<br>Maqsad va vazifani belgilanishi.<br>1.7. O'quv mashg'uloti mavzusi, rejasi, maqsad va o'quv faoliyat natijalari bilan tanishtiradi. | **Darsga tayyorgarlik ko'radilar.**<br>**Tinglaydilar, yozib oladilar.**<br>**Yozib oladilar.** |
| **2-bosqich. Asosiy (70 daq.)** | Tayanch bilimlarni faollashtirish.<br>2.1. O'quvchilar bilimini tezkor-so'rov orqali faollashtiradi Javoblarni qabul qiladi, ular asosida yangi o'quv materiali bo'yicha ma'lumotlar berishga o'tadi.<br>Yangi o'quv materialiga kirish.<br>2.2. Slaydlarni Power point tartibida namoyish va sharhlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy holatlarni bayon qiladi.<br>2.3. Jalb qiluvchi savollar beradi.<br>2.4. Mavzuning har bir qismi bo'yicha xulosalar qiladi.<br>2.5. Ma'lumotlarni daftarga qayd etishlarini eslatadi.<br>2.6. Yangi o'quv materialini o'zlashtirish darjasini tekshirish bo'yicha tezkor-so'rov o'tkazadi | **Savolga javob beradilar.**<br>**Kuzatadilar, ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.**<br>**Savollarga javob beradilar.**<br>**Savollarga javob beradilar** |
| **3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)** | Mashg'ulotni yakunlash.<br>3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga O'quvchilar e'tiborini qaratadi.<br>Uyga vazifa berish.<br>3.2. Qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish yo'llarini aniqlash | **Diqqat qiladilar.**<br>**Topshiriqni yozadilar** |

## 4.4. “Qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish yo'llari”

Dars turi: Nazariy mashg'ulot.

Dars uchun ajratilgan vaqt: 80 daqiqa

Dars o'tish joyi: Slaydlar asosida dars o'tishga mo'ljallangan xona

O'qish metodi: Og'zaki, muammoli, munozarali usullar.

Darsning metodik ta'minoti: O'quv uslubiy majmua, savollar, audiovizual vositalar,dioproektor, elektron darsliklar.

Darsning maqsadi: Talabalarda Qishlab xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik to'g'risida bilimlarni shakllantirish

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Mavzuni o'zlashtirish orqali talabalarda
fan mohiyatini tushuntirish, kasbiy qiziqtirish malakalar oshirish

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarni mavzu yuzasidan bilimini rivojlantirish fikrlarini oshirish

### Dars o'tish tartibi

### I.Tashkiliy qism.

Talabalar bilan salomlashib ularning kayfiyatini, darsga tayyorlarligini nazorat qilish, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini va xonaning darsga tayyorligini tekshirish, psixologik iqlim yaratish darsning asosiy qismi hisoblanadi. Yo'qlama qilib darsga ish vaziyatini vujudga keltirib, darsni muvaffaqiyatli boshlash lozim bo'ladi.

II. Oldingi o'tilgan mavzu yuzasidan uyga berilgan vaziyatlarni talabalardan turli metodlar yordamida ya'ni har bir reja bo'yicha savol javoblar, mavzu bo'yicha bahs-munozaralar o'zlashtirib, qisqa test o'tkazib va ularni bilim saviyasini aniqlash mumkin.

III. Yangi mavzuni va dars rejasida yozib, mavzu yuzasidan foydalanishda tavsiya qilinadigan darslik, adabiyotlar uslubiy va ko'rsatmali materiallar haqida ham aytib o'tish mumkin.

Yangi mavzuni tushuntirish tuzilgan dars rejasiga asoslanib olib boriladi. Dars jarayonida har bir rejani tushuntirib bo'lgandan so'ng reja bo'yicha bahs-munozara olib borish mavzuni mustahkamlashga talabalarni qiziqtirishga erkin muloqotlarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

IV. Yangi mavzuni va dars rejasini slaydlar orqali namoyish қилинади.

Dars bayoni

Dars bayoni asosan slaydlar asosida olib boriladi:

**1-ilov**

Dars rejasi:

1) Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanishi

2) Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili

3)Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini va mahsulot etishtirishni rejalashtirish

4)Qishloq xo'jaligida kichik korxonalarning ijtimoiy iqtisodiy

**2-ilova**

Tadbirkorlik shakllari

- Yakka tartibdagi mehnat faoliyati
- Xususiy tadbirkorlik faoliyati
- Jamoa tartbidagi mehnat faoliyati
- Aralash tadbirkorlik

**3-ilova**

- Xususiy tadbirkorlik
-
- Yuridik shaxsni tashkil qilgan holda xususiy tadbirkorlik faoliyati
- Yuridik shaxsni tashkil qilmagan holdagi xususiy tadbirkorlik faoliyati

**4-ilova**

2011 yil Prezidentimiz tomonidan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb e'lon qilinib, yil davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifa va chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan maxsus Davlat dasturi ishlab chiqildi. Ushbu chora-tadbirlarning o'ziga xos ahamiyati haqida to'xtalib, mamlakatimiz rahbari “Alohida katta e'tiborni talab etadigan yana bir masala shuki, hozirgi vaqtda yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosan savdo-sotiq, xizmat va aloqa sohasida , qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha ko'proq rivoj topmoqda.

**5-ilova**

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng tadbirkorlik ham rivojlanib bormoqda. Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik sub'ektlari soni 2013 yilda 2009 yilga nisbatan 44 foizga kamaygan bo'lsada, kichik tadbirkorlikda band bulgan kishilar soni xamda yangi yaratilayotgan ish o'rinlari oshib bormoqda. Shuningdek, yalpi xududiy maxsulotdagi ulushi 39,5 foizdan 55,4 foizga oshgan. Xamda sohalar buyicha tadbirkorlik sub'ektlari ulushi ortib bormoqda.

**6-ilova**

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sub'ektlari turli chegaralarining амал qilish bosqichlari

| Bosqich | Yillar | Tegishli me'yoriy hujjat |
|---|---|---|
| I | 1992-1995 | “O'zbekiston Respublikasida kichik korxonalar to'g'risidagi Nizom” (Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 26 fevraldagi 85-sonli qaroriga 2-ilova) |
| II | 1995-1998 | O'zbekiston Respublikasining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida”gi qonuni (1995 yil 21 dekabr) |
| III | 1995-2003 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni (1998 yil 9 aprel) |
| IV | 2003 yildan hozirga qadar | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirishchora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi farmoni (2003 yil 30 avgust); O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikasiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori (2003 yil 11 oktyabr) |

**7-ilova**

Qashqadaryo viloyatida kichik va yakka tadbirkorlik sub'ektlarining yalpi xududiy maxsulotdagi ulushi (foizda)

| Т\Р | Ko'rsatkichlar | 2007й. | 2008й. | 2009й | 2010 й | 2011 й | 2012 й | 2013 й |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Tadbirkorlik sub'ektlari ulushi | 39,5 | 47,5 | 50 | 52.6 | 55.0 | 56,2 | 55,4 |
| 3 | Kichik tadbirkorlik va mkirofirmalar1 | 24,2 | 28,9 | 29 | 33.4 | 34.2 | 35,6 | 36,3 |
| 4 | Yakka tadbirkorlik sub'ektlari | 7,1 | 9,5 | 10.9 | 8.1 | 10.2 | 10,3 | 11,3 |
| 5 | Dehqon xo'jaliklari | 8,2 | 9,3 | 10.1 | 11.1 | 10.6 | 11,3 | 13 |

Izoh: fermer xo'jaliklari bilan birga

**8-ilova**

**Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlikka ajratilgan kredit mablag'lari**

| Yillar | Jami ajratilgan kreditlar | Sanoat | Qishloq xo'jaligi | Savdo | Qurilish va maishiy xizmat ko'rsatish | Boshqa tarmoq-lar | Qisqa muddatli | Uzoq muddatli |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2013 | 114699 | 31314 | 38999 | 19128 | 19154 | 5504 | 38883 | 75816 |
| 2012 | 75800 | 20400 | 25500 | 15300 | 7900 | 3300 | 26200 | 49600 |
| 2011 | 43900 | 10600 | 16800 | 8900 | 4652 | 2900 | 15500 | 28400 |
| O'zgarish,% | 261,3 | 295,4 | 232,1 | 214,9 | 411,7 | 189,8 | 250,9 | 267,0 |

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Talabalarning yangi o'tilgan mavzuni qanchalik tushunganliklarini baholash uchun tezkor so'rov usulidan foydalaniladi.Tezkor so'rov vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni ya'ni kichikbiznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida savollarga javob topishga intilishadi, o'z fikrlarini bildiradi va muhokama qilinadi va rivojlantiladi, ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Tezkor so'rov usulining vazifasi o'quv o'rganish faoliyatini faollashtirish, mavzuni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutulish va ijodiy masalasini hal etishda fikrlashning oddiy borishini engish.

V. darsni yakunlash.

Tezkor so'rov usuli qo'llash natijasida mavzu bo'yicha talabalarda intilish, fikrlash, mavzuni tushunish va o'qituvchi tomonidan baholash mumkin bo'ladi.

Kelgusi darsga tayyorlanib kelishi uchun savollar beriladi.

Dars yakunida talabalarga uyga bajarib kelishlari uchun vazifa beriladi. Kerakli adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiriladi. Tarqatmali materiallar tarqatiladi. Shu bilan ma'ruzaga yakun yasalib talabalar bilan xayrlashiladi.

## 5.1.Amaliy dars va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni.

Amaliy  dars talabalarni bilim olishlari, uni puxta o'zlashtirishlari va olgan bilimlarini kelgusida real hayotda qo'llashni o'rganishlarida alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham amaliy darsni qiziqarli, talabalarni faol qatnashishlarini ta'minlaydigan uslublarni qo'llab dars o'tish muhim ahamiyatga ega.

Ma'ruzada odatda ko'proq bayon qilish etakchi rol o'ynaydi. Talabalar darsda passiv rol o'ynashadi. Darsda turli uslublarni qo'llab ularning faolligini ta'minlash imkoniyati keng. Ma'ruza darsi asosan monolog tarzida bayon qilinsa, amaliy darsi turli-tuman dialog asosida olib boriladi. Odatda amaliy darsda talabalarning bilimi, o'z ustida ishlash darajasi aniqlanadi, nazorat qilinadi.

Ta'limning amaliy shakli qadimgi Yunon va Rim maktablarida paydo bo'lgan. Keyinchalik G'arbiy YEvropa universitetlarida rivojlantirilgan. Bu universitetlarda amaliy dars asosan, talabaning adabiyotlar, manba ustida ishlash vazifasini o'tagan. XX asr boshlarida amaliy darslari talabalarning umumiy dunyoqarashini kengaytirishda, ularni muayyan fan tarixidagi muhimmuammo va tadqiqotlar bilan tanishtirishda katta rol o'ynay boshlagan.

Amaliy darslar asosan uch turi mavjud:

O'rganilayotgan fan yoki kursni chuqur o'rganishga yordam beradigan amaliy darslari;

Ayrim muammo, asosiy yoki muhim mavzuni o'rganish uchun o'tkaziladigan amaliy darslar;

Tadqiqot xarakteridagi amaliy darslar.

O'quv jarayonini tashkil etishda amaliy darslari alohida o'rin tutadi. Amaliy dars talabalarning bilimlarini mustahkamlashni ta'minlovchi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi o'quv jarayoni shaklidir. amaliy mashg'ulotlarining maqsadi talabalarning chuqur bilim olishini ta'minlash, olgan bilimlarini real hayotda qo'llashga o'rgatishdir.

Buning uchun talaba olgan axborotlarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot o'tkazish, taqqoslash, xulosa chiqarishni bilishi kerak. Bunday mahoratga ega bo'lishga ko'p jihatdan amaliy darsi yordam beradi.

Amaliy darsning oldiga qo'yilgan bosh maqsadni amalga oshirish uchun darsni oldiga qo'yilgan qator vazifalarni amalga oshirish kerak. Bu  vazifalar amaliy darslar bajaradigan funksiyalarda o'z ifodasini topadi.

Amaliy dars bir qator funksiyalarni bajaradi:

Talabalarga professional ta'lim berish va tarbiyalash;

Mustaqil ishlash malakasini o'stirish;

Talabalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

Nutq so'zlash, ilmiy munozaralar olib borishgi o'rgatish;

Mustaqil fikr yuritish va o'z fikrini o'rtoqlashishga o'rgatish;

O'rtoqlari fikrini tanqidiy nuqtai nazardan baholashga o'rgatish;

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

**5.2. “Kichik biznesni moliyalash va kredit bilan ta'minlash xususiyatlari” mavzusida amaliy ta'lim berish texnologiyasi.**

| *Talabalar soni: 20 ta* | *Dars vaqti - 2 soat* |
|---|---|
| *Mashg'ulot shakli* | Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot |
| *Mashg'ulot rejasi* | -Moliyaviy resurslar va moliyaviy kapitalning mohiyati va tuzilishi;<br>- Kichik biznesning moliyaviy resurs manbalari.<br>- Kapital investisiyasi va uning turli.<br>- Kichik biznesni kredit bilan ta'minlash shakllari. |
| *O'quv mashg'ulotining maqsadi* | “Kichik biznesni moliyalash va kredit bilan ta'minlash xususiyatlari” mavzu bo'yicha talabalar bilimlarini chuqur o'zlashtirishni ta'minlash |
| *Pedagogik vazifalar:* | *O'quv faoliyati natijalari:* |
| -Moliyaviy resurslar va moliyaviy kapitalning mohiyati va tuzilishi mavzuni mustaqil o'zlashtirish o'rganish uchun asos yaratadi;<br>-Kichik biznesning moliyaviy resurs manbalari mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;<br>-kichik guruhlashda ishlashni tashkil qiladi;<br>- o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi;<br>-mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi. | *- Moliyaviy resurslar va moliyaviy kapitalning mohiyati va tuzilishi haqida berilgan fikrlarni tahlil qiladilar;*<br>*- Kichik biznesning moliyaviy resurs manbalari xaqidagi qarashlari bo'yicha fikrini namoyon etadilar;*<br>*- Kapital investisiyasi va uning turli bo'yicha o'z fikrlarini bayon qiladilar.*<br>*- Kichik biznesni kredit bilan ta'minlash shakllar bo'yicha o'z fikrlarini namoyon etadilar;* |
| O'qitish usullari va texnika: | kichik guruxlarda ishlash, test nazoratlari. |
| O'qitish vositalari: | tarqatmali materiallar, kompyuter texnologiyasi, multimedia, videoproektor. |
| O'qitish shakllari: | Jamoa va guruh bilan ishlash. |
| O'qitish shart-sharoitlari | Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash: | test nazorati, savol-javob, o'z -o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**5.3. “Kichik biznesni moliyalash va kredit bilan ta'minlash xususiyatlari” mavzusida amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi**

| *Ish bosqichlari* | *O'qituvchi faoliyatining mazmuni* | *Talaba faoliyatining mazmuni* |
|---|---|---|
| ***1- bosqich Kirish (10 min)*** | 1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2. «kichik gurularda ishlash»usulidan foydalanilgan holda talabalarga bajarilgan ishlarni ko'zdan kechirib xulosalaydi.<br>1.3. Talabalar fikrini umumlashtirib, ularni 3-4 ta kichik guruhlarga bo'ladi.<br>1.4 Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan. tanishtiradi.<br>1.5. Guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi. | Mavzu nomini yozib oladilar<br><br>Yozib oladilar<br>O'z fikrlarini erkin bildiradilar, grafikli organayzerni to'ldiradilar. Inter faol usullardan foydalanilgan holda kichik guruhlarga bo'linadi<br><br>Yozib oladilar |
| ***2- bosqich Asosiy qism (60 min)*** | 2.1. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi va guruhlarda ishlashni tashkil etadi.<br>2.2. 3-4 ta guruhga bo'ladi, har bir guruh topshiriqlarini flipchart qog'ozga tushirib, taqdimotni o'tkazishga yordam beradi, bilimlarni umumlashtiradi, xulosa qiladi.<br>2.3. Ta'riflar mazmunini tushuntiradi va grafikli organayzerlarni bajarishni tashkil qilish bo'yicha maslahatlar beradi, kuzatib turadi.<br>2.4. “Kichik biznesni moliyalash va kredit bilan ta'minlash xususiyatlari” to'g'risida tushunchalar beradi;<br>Muammoni tushuntiradi, maslahatlar beradi, echimini shartlab berishni so'raydi, yagona xulosa chiqarishga ko'mak beradi va nihoyasida umumlashtiradi | Jamoa bo'lib baja-rilgan ishning taqdimotini o'tkazadilar, baxs munozara o'tkazadilar, qo'shimchalar qiladilar, xulosa chiqa-radilar. Qo'yilgan savol-larga javob tayyorlaydilar. Metodologik asoslarini va turkumlanishini ko'rsata-dilar qo'yilgan muammo bo'yicha tasavvurga ega bo'ladilar va echimini shartlashni o'rganadilar. |
| ***3-bosqich Yakuniy qism (10 min*** | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.<br>3.2.O'z-o'zini nazorat va mustahkamlash uchun savol beradi.<br>3.3. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini taxlil qiladi va baholaydi.<br>3.4 Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi. | Savollar beradilar<br>Savollarga javob beradilar<br>Baho oladilar<br>O'quv uslubiy majmuaga qaraydilar |

**5.4.Texnik vositalar asosida amaliy mashg'ulot o'tkazish metodikasi.**

**Mavzu: “Kichik biznesni moliyalash va kredit bilan ta'minlash xususiyatlari”**

Dars turi: Amaliy mashg'ulot.
Dars uchun ajratilganт vaqt: 80 daqiqa
Dars o'tish joyi Texnik vositalar asosida kichik guruhlarga bo'linib ishlash uchun qulay bo'lgan auditoriya

O'qish metodi: Texnik vositalar asosida hamda kichik

guruhlarda ishlash usullari.

| | |
|---|---|
| Darsning metodik ta'minoti: | Kompyuter texnologiyasi, multimedia, videoproektor, tarqatmali materiallar, o'quv qo'llanmalari |
| Darsning maqsadi: | Talabalarda mavzu bo'yicha”Kichik biznesni moliyalash va kredit bilan ta'minlash xususiyatlari samaradorligi to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish |
| Darsning tarbiyaviy maqsadi | Talabalarda mustaqil fikrlash, amaliy mashg'ulotga faol ishtirok etish, mavzuni tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirish o'zi tanlagan kasbiga qiziqish uyg'otish |
| Darsning rivojlantiruvchi maqsadi | Ishni bajarish orqali talabalarda mavzu bo'yicha tushuncha, malaka, kasbiy muloqot madaniyatiga o'rgatish |

Ta'limning texnik vositalari asosida dars o'tish metodining tavsifi

Amaliy mashg'ulotda multimediya vositalari yordamida talabalarni o'qitish ikki barobar samarali bo'ladi. Mazkur vosita yordamida o'qitishda an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan o'rtacha 30 foizgacha vaqtini tejash mumkin hamda olingan bilimlar o'quvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi.

Ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanish juda muhim o'rin egallaydi. Ushbu vositalar yordamida mashg'ulotlarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda olib borish hamda ta'lim oluvchilarni diqqatini jalb etishda keng foydalanish mumkin. Texnik vositalar ma'lumotlarni vizuallashtirishda yordam berib, kerakli tasvir va matnlarni yozib olish, saqlash imkonini beradi.

I.Tashkiliy qism.

O'qituvchi mashg'ulotga kirgandan keyin salomlashib, xonada psixologik iqlim yaratib talabalarni darsga ishtirokini aniqlaydi va o'quv auditoriyasini dars o'tishga tayyorligini tekshiradi. Dars boshlanadi.

II. Oldingi o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Avvalgi o'tilgan amaliy mashg'ulotda berilgan uy vazifasini tekshirib chiqiladi. Tekshirishda turli usullardan foydalanib mavzu bo'yicha bilimlarni nazorat qilinadi.

III.Ushbu qismda talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarni nazorat qilish uchun oraliq baholashda test o'tkazish usulini qo'llandi. Talabalar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalarini hosil bo'lganligini, test orqali tekshirib baholanadi.

IV. Darsni yakunlash.

Talabalardan oraliq nazoratni ya'ni testlarni javoblarini olib, kelgusi o'tiladigan mavzuni e'lon qilinib darsni yakunlanadi.

## Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, samarali amalga oshirilishini ta'minlash borasida iqtisodiyotda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar quyidagilardan iborat:

joylardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini samarali faoliyatiga halal berayotgan, to'sqinlik qilayotgan yoki qilishi mumkin bo'lgan muammolarni muntazam ravishda o'rganib borish va o'z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

hududdagi bo'sh yoki samarali foydalanilmayotgan bino va inshootlar to'g'risidagi aniq ma'lumotlar qisqa muddatlarda olinishi hamda ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga taqdim etilishi jarayonlarini samarali tashkil etish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish borasida har bir hududdagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ulardan kelib chiqqan holda barcha imkoniyatlarni safarbar qilish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish yo'lidagi har qanday byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;

hududdagi kichik biznes sub'ektlarining energiya, gaz, suv va kanalizasiya, issiqlik ta'minoti va shu kabi muhandislik-kommunikasiya tarmoqlariga ulanishi jarayonlariga e'tibor qaratish hamda bu boradagi ilg'or tajribalarni qo'llash;

mahallalarda oilaviy biznesni rivojlantirish bo'yicha mavjud imkoniyatlar va ularni ro'yobga chiqarish yo'llarini aniqlash; shu asosda oilaviy biznesni tashkil qilishning namunaviy shakllarini tavsiya etish va qo'llab-quvvatlash;

hududda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarinig faoliyat yo'nalishlari jihatidan tarkibini takomillashtirish chora-tadbirlarini qo'llash, xususan, sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishning turli yo'l va choralarini izlab topish;

hududdagi eksportga mahsulot chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga yordam ko'rsatish va rag'batlantirish orqali ularning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va

xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishi ta'minlash lozim.

Hamda bitiruv malakaviy ishda ta'lim sohasiga alohida to'xtalib hozirgi zamon talablariga mos holda ta'limni tashkil etish maqsadida nazariy va amaliy darslarni o'qitishda ta'limning texnik vositalari yordamida, hamda kichik guruhlarda ishlash usullaridan foydalanib o'qitish uslubiyotini ishlab chiqilgan. Nazariy darsda muammoli metodlardan foydalanilgan holda slaydlar asosida dasrni olib borish ishlanmasi keltirilgan. Amaliy mashg'ulotda kichik guruhlarga bo'lib ishlash usulidan foydalanilgan hamda amaliy mashg'ulotda oraliq baholashda kompyuterda test o'tkazish usulini ishlanmasi ishlab chiqilgan.

Ta'limda texnik vositalar asosida hamda interaktiv metodlardan foydalanilganda talabaning mavzuni o'zlashtirishi hamda esda olib qoladi, diqqatini jalb etadi. Mavzuni yaxshi o'zlashtirishga hamda ko'nikma va malakalarini hosil qilishda muammoli metoddan foydalanilsa talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Kasb ta'limi jarayonida yuqori samaradorlikka erishish maqsadida quyidagi takliflarni beraman;

- kasb- hunar kollejlari o'quv auditoriyalarini ta'limning texnik vositalari bilan jihozlanishi maqsadga muvofiqdir;
- kollejda mavjud texnika va texnologiyalarni ishlata oladigan, ulardan pedagogik faoliyatda unumli foydalanishga qodir kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadga molikdir;
- kasb-hunar kollejlarida ta'limning sifat va samaradorligini oshirish uchun zamonaviy dars ishlanmalarini yaratish, interaktiv metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq;
- rivojlangan mamlakatlar oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik shartnomalarini tuzish va ulardan ilg'or pedagogik texnologiyalarni, fan va texnikadagi yutuqlarni kollej ta'lim tizimiga joriy etish maqsadga muvofiq va istiqbollidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR

### I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari:

1. Qonun. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –Toshkent, O'zbekiston, 1999. –16 b.
2.O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. “Barkomol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”.- T.: Sharq,1997y.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.:Sharq,1997 y.
4.Qonun. O'zbekiston Respublikasining “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi Qonuni (Yangi tahrirda)// Xalq so'zi. – 15 oktyabr 2004 yil
5. Qonun. O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida» gi qonuni. //O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlar. –Toshkent, O'zbekiston, 1992. -19 b.
6. Qonun. O'zbekiston Respublikasining «Ijara to'g'risida» gi qonuni. // O'zbekiston ovozi. 10 yanvar 1992 yil.
7.Qonun. O'zbekiston Respublikasining «YEr kodeksi». // Soliq to'lovchining jurnali, -Toshkent, 1998. № 7-8. –B. 12.
8. Qonun. O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonuni. // Soliq to'lovchining jurnali, Toshkent, -1998. -№7-8. –B. 21-25.
9. Qonun. O'zbekiston Respublikasining “Dehqon xo'jaligi to'g'risida”gi qonuni. // Xalq so'zi. 6 iyun 1998 yil.
10. Qonun. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi, -Toshkent, Adolat. -1999. –136 b.
11. Qonun. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. –Toshkent, Adolat. -1999. –21 b.
12. Qonun. O'zbekiston Respublikasining Lizing to'g'risidagi qonuni. (( Xo'jalik va huquq. –Toshkent, 1999. -№ 6. – B. 5.
13. Qonun. O'zbekiston Respublikasining “Raqobat to'g'risida”gi qonuni. // Xalq so'zi. 7 yanvar 2012 yil.

II. Prezident I.Karimov asarlari, ma'ruzalari va nutqlari:

1. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istikdol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992. 78 bet.
1.Karimov.I.A.Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili-T.: O'zbekiston,1995 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXIasrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999 y.
4. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz- T.: O'zbekiston,1999 y.
5.Karimov I.A. O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat. T., «O'zbekiston», 1992. 62 bet.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatini ustuvor yo'nalishlari. T., «O'zbekiston», 1993. 56 bet.
7. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T., «O'zbekiston», 1994. 299 bet.
8. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995. 269 bet.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997. 326 bet.
10 .Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998. 686 bet.
11. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmokda: Prezident Islom Karimovning birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyadagi ma'ruzasi. 1999 yil 14 aprel. T., «O'zbekiston», 1999. 48 bet.
12. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T., «O'zbekiston», 2000. 112 bet.
13. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005. -96 b.
14. I.A.Karimov. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Turkiston gazetasi, -Toshkent, 2005. 29 yanvar № 8. (14817.)
15. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. -Toshkent: O'zbekiston, 2009. -41 b.
16. I.A.Karimov. BMT sammiti mingyillik rivojlanishi maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisdagi nutqi. Xalq so'zi, 2010 y. 22 sentyabr.
17. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. “Turkiston” 2011 yil 22-yanvar.

18. Karimov A.I. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2011 yilda asosiy yakunlari hamda 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2012. 20 yanvar
19. Karimov I.A. Mustaqillikka erishish ostonasida T: “O'zbekiston”, 2011.-440 б.

**III. Ilmiy asarlar va risolalar.**

13.1. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassislarga tayyorlash texnologiyasi – T.: TDPU, 2000 y
14.2.Vohobov A.V. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. T., «Moliya», 2002. 330 bet.
15.3. Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rO'nochnoy ekonomiki Koll. Avt.: R. A. Alimov, A. K. Bedrinsev, A. F. Rasulov i dr.// Pod red. A.X. Xikmatova. – T.: O'zbekiston, 2001.- 352 b.
16.4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.:TDPU, 2003 y.
17.5.Bespalko V.P. Pedagogika i progressivne texnologii obucheniya.- M.: Izd.Instituta professionalnogo obrazovaniya Ministerstva obrazovaniya Rossii, 1995g.
18.6. Gurevich. P.S. Psixogiya i pedagogika. – M., 2003g
19.7. Ziyomuxammadov V., Abdullaeva Sh. ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot “Ma'naviyat asoslari” darsi asosida ish langan uslubiy qo'llanma. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001 y.
20.8. Ishmuxamedov R.J. Innovasiya texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDRU, 2004y
21.9. Larner I.Ya. Vnimanie k texologiya obucheniya. – M.: Pedagogika,2001 y.
22.10. Xakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
23.11 .Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., Yusupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
24.12 .Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.

Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b

14. Karimov R.K., Karimova T.A. Milliy model muammolari. T., «O'zbekiston», 1993. 64 bet.

Rasulov M. Bozor iqtisodi asoslari. T., «O'zbekiston», 1997. 383 bet.

To'xliev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. T., «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi». 1998. 239 bet.

Shodmonov Sh., G'anixo'jaeva F. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ijtimoiy takror ishlab chiqarish. T., «O'zbekiston», 1993. 175 bet.

Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T., «Moliya», 2002. 415 bet.

G'ulomov S.S. O'zbekiston Respublikasi: bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li. T., «Fan», 1996. 131 bet.

G'ulomov S.S. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti. T., «Mehnat», 1997. 205 bet.

G'ulomov S, Ubaydullaeva R., Axmedov E. Mustaqil O'zbekiston. T., «Mehnat», 2001. 246 bet.

22. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000

23. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: RTM, 1999 y.

25. Xo'jaev N.X., Xodiev V.Yu., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma.- T.: Fan,2002 y.

25.Xo'jaev N., Xasanboev J. Iqtisodiy pedagogika. O'quv qo'llanma.-T.: TDIU, 2002 y.

1. IV. Internet saytlar

2. Петранева Г.А., Экономика и управление в сельском хозяйстве. Учебник. 2004, http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html

3. Петранева Г.А., Экономика и управление в сельском хозяйстве, Академия, 2003, http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm

4. Н.А. Попов «ОсновЎ рЎночной агроэкономики и сельского предпринимательства», М: Тандем /ЭКМОС, 2002, http://family.taukita.ru/item22219310.html

5. Н.А.Попов. Экономика отраслей АПК. Курс лекций, 2002, http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1

6. Н.Я.Коваленко, Экономика сельского хозяйства, М.: «ЮРКНИГА», 2004, http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899

7. www.bearingpoint.uz

8. www.classis.ru/pages/classis/6/48/

9. www.finansy.ru/publ/mark Radio Tashkent International. http://info.uzpak.uz/uzb/econom_uzb/

10. Recently Published Books. www.eastview.com

11. Мардонова А.Т., Исщо=ова С.А. Аграр сощада мулкий муносабатларни рўёбга чиқаришнинг долзарб услублари. www.ski.ilm.uz